

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

"INGLIZ TILSHUNOSLIGI" KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAYZU: INGLIZ TILI DARSLARIDA LEKSIK MATERIAL
TANLASH TAMOYILLARI

Bajardi:

4 "C" guruh talabasi Arziqulova Gulniso

Ilmiy rahbar:

oq`it.S.Q.Hasanova

NAVOIY-2012

MUNDARIJA

KIRISH

1-BOB. INGLIZ TILI DARSINI TASHKIL ETISH TAMOYILLARI

- 1.1. Ingliz tili darsiga qo'yiladigan talablar
- 1.2. Ingliz tili darsi va uning turlari (AND-aralash nutq darslari, SND-sof nutq darslari);
- 1.3. Dars – pedagogik asardir
- 1.4. Dars turlari va bosqichlari

2-BOB. INGLIZ TILI DARSLARIDA LEKSIK MATERIAL TANLASH TAMOYILLARI

- 2.1. Ingliz tilini o'rgatishda leksikaning ahamiyati
- 2.2. Ingliz tili leksikasini o'rgatishning psixologik xususiyatlari
- 2.3. Ingliz tili leksikasining lingvistik xususiyatlari
- 2.4. Ingliz tili leksikasini o'rgatishni metodik tashkil qilish
- 2.5. Leksikani o'rgatishda so'zlar lug'ati
- 2.6. Leksik materialni nutqda qo'llanish prinsiplari
- 2.7. Leksik materialni o'rgatishda mashqlarning o'rni

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarining jadal rivojlanishi va mamlakatimizda va jahon hamjamiyatida ta'lim sohasida davlatlararo integratsiyasi butun ta'lim tizimi va o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalashni o'zgartirishni talab etdi.

“Zamonaviy shart-sharoitlar xalq ta'limi tizimini uning barcha pog'onalarini bir kompleks sifatida ko'rishni talab etib umumiy va maxsus ta'lim, professional tayorgarlik, yoshlarni shaxs sifatida ruhan va ahloqan etilishini ta'minlashi kerak¹”...

Buning uchun ta'lim maktabi, oliy va o'rta mahsus ta'lim tizimini muhim tarzda mustahkamlash, o'quv dasrurlarini yangilash, ularni jahon madaniyati xazinalari bilan boyitish kerak”.

Shuning uchun hozirgi kunda til va madaniyat, jamiyat rivojlanishida til va madaniyatning bir butun roli, to'liq shaxslararo va madaniyatlararo munosabat malakalarini tashkil etish kabi muammolar faollashtirilmoqda.

Muloqot madaniyati bugungi kunda global ahamiyat kasb etadi, zero alohida insonlar hamda butun xalq va davlatlar orasidagi munosabatlar, bir-birini tushunish va o'zaro ta'siri shunga asoslanadi.

Bundan ko'rinadiki, hozirgi davr miqyosida O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi tarkibini rivojlantirish muhimligi ko'rinadi, ayniqsa tehnogen sivilizatsiyadan antropogen sivilizatsiyaga o'tishni, ta'limni gumanizatsiya va gumanitarizatsiyasi, milliy hamda umuminsoniy dunyo madaniyati yutuqlarini egallashni hisobga olgan holda, kadrlar tayorlash Milliy dasturi shunga qaratilgan.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: O'zbekiston. 1995. -B.239.

Bu esa o'z navbatida yosh kadrlarni tayyorlash sifatini oshirish maqsadida o'quv-tarbiya jarayoniga yangiliklarni kiritishni talab qiladi². Bular to'la ravishda o'zbek tili o'rta ta'lim maktabi, litsey, kollej va tillar o'rganishga ixtisoslashmagan oliy o'quv yurtlari guruhlarida xorijiy tillarni o'rgatish metodikasiga taalluqli.

O'qitish amaliyotiga yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish vositalarini yaratish, aprotatsiya qilish va amaliyotiga kiritishni talab etadi, chunki bugungi kunda qo'llaniladigan texnologiyalar dastur materialining o'quvchilarning madaniy tasarrufini shakllantirish miqyosida (til, nutq va muloqot bilan bir qatorda) kerakli tarzda qabul qilinishini ta'minlamaydi, bu esa zamonaviy olamda, shu jumladan ko'p millatli O'zbekiston Respublikasida talab etilgan madaniyatlararo muloqot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Madaniyatlararo muloqot polifunksional jarayonida eng komponenti bu tildir, chunki "xalqning tili uning ruhidir, va xalqning ruhi bu tildir va bundan yuksakroq tenglikni tasavvur etish qiyindir".

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Metodika va pedagogika sohasidagi olim va professorlarning ishlari o'zbek maktab va oliy o'quv yurtlari auditoriyasida so'nggi yillarda ingliz tilini o'rganish muammosiga bag'ishlangan va boshqalar tomonidan ingliz tilini o'rganish muammolariga oid bir qator dissertatsiya izlanishlar bajarilgan. Bir madaniyat egasi tomonidan ikkinchi bir madaniyat badiiy asarini o'qish va anglashda vujudga keladigan qiyinchiliklar bir qator mashhur lingvist, jamiyatshunos va metodistlarning izlanishlari ob'ekti bo'lgan (V.V.Vinogradov, L.S.Barxudarov, A.A.Leontev, G.D.Tomaxin, E.M.Vereshagin, V.G.Kostomarov, G.Sh.Abdullaeva va boshqalar).

Mazkur izlanish yangiligi: bizning nuqtai-nazarimizda, ekstralingvistik omillar bilan ham asoslangan. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishidan keyingi o'zgargan ijtimoiy-siyosiy holat, o'zbek xalqining o'z-o'zini milliy anglashining o'sishi, o'z tarixi va tiliga qiziqishning o'sishi avvalambor davlat tili maqomini olgan o'zbek tilining rivojlanishiga turtki bo'ldi. Bu sharoitda

² Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – T.: Sharq, 1997. – B.11. 4

tabiiy holki, bu narsa til materialini tanlashga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Tadqiqot ob'ekti: o'rta maktab quyi va yuqori sinflarida, litsey, kollej va tillar o'rganishga ixtisoslashmagan oliy o'quv yurtlarida leksik til materiallarini tanlash va o'rgatish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: o'rta maktablarda, litsey, kollej va tillar o'rganishga ixtisoslashmagan oliy o'quv yurtlarida leksik material ustida ishlash metodikasi.

Ishning maqsadi: ingliz tili darsini tashkil etish tamoyillarini inobatga olgan holda

- Ingliz tili darsiga qo'yiladigan talablar
- Ingliz tili darsi va uning turlari (AND-aralash nutq darslari, SND-sof nutq darslari);
- Dars – pedagogik asardir
- Dars turlari va bosqichlarini o'rganish va shu asosda
 - Ingliz tilini o'rgatishda leksikaning ahamiyati
 - Ingliz tili leksikasini o'rgatishning psixologik xususiyatlari
 - Ingliz tili leksikasining lingvistik xususiyatlari
 - Ingliz tili leksikasini o'rgatishni metodik tashkil qilish
 - Leksikani o'rgatishda so'zlar lug'ati
 - Leksik materialni nutqda qo'llanish prinsiplari
 - Leksik materialni o'rgatishda mashqlarning o'rni masalalarini chuqur tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot metodlari: quyidagilardan iborat:

- 1) o'rganish va tahlil qilish;
- 2) morfologik-sintaktik, frazeologik, semantik-stilistik tahlil etish;
- 3) jamiyatshunos-pedagogik: kuzatuv, so'rov o'tkazish, intervyu olish, umumlashtirish va tahlil qilish;

Tadqiqotning metodologik asosi: sifatida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim haqidagi qonuni", "Kadrlar tayorlash milliy dasturi", O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 16 avgustdagi 390-sonli “Umumiy va o’rta ta’lim davlat standartlarini tasdiqlash haqidagi” qarori, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim to’grisidagi Farmoni, pedagogika, psixologiya, tilshunoslik va chet tillar o’qitish metodikasi sohasidagi taniqli olimlar ishlari xizmat qiladi.

Ishning nazariy ahamiyati: Dars va turlari, bosqichlari, darsni tashkil etish, dars uchun leksik material tanlash va uni o’zlashtirishning oson va samarali usullarini ishlab chiqish maktablarda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda ingliz tili darslarini tashkil etish uchun material tanlash imkonini beradi.

Ishning amaliy ahamiyati uning natija va ko’zda tutilgan istiqboli bilan aniqlangan:

1) O’zbekiston Respublikasi o’rta umumiy ta’lim maktablari, hamda litsey va kollej talabalalariga ingliz tili darslarini tashkil etishga mo’ljallangan metodik tavsiyalar berish;

2) leksik birliklari tanlash, namoyish etish, tushuntirish o’zbek o’quvchi va talabalari tomonidan ingliz tilini o’rganishda talab qilinadigan kuchli e’tibor, ma’limot va masalalarni ishlab chiqishni talab qiluvchi kerakli leksik minimumini topadi;

3) o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilgan til va madaniy bilimlar kommunikativ muloqotda xalqi turmushi, etik normalari, ingliz tili muhitini tasvirlovchi real faktlar bilan ongli ravishda va savodli ravishda foydalanishga imkon beradi;

Tadqiqot natijalari maktab, litsey, kollej va tillar o’rganishga ixtisoslashmagan oliy o’quv yurtlar o’qituvchilariga o’quv qo’llanmasini rejalashtirish, tuzish va undan foydalanishda ilmiy-metodik ko’mak berish maqsadida ishlab chiqilgan.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi: BMI kirish qismi, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat.

Kirish qismida tadqiqot mavzusi dolzarbligi ta’kidlanadi, tadqiqot ob’ekti va

predmeti aniqlanadi, maqsad, vazifa, ishning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi ochiladi, tadqiqot metodlari ta'riflanadi.

1-BOB. INGLIZ TILI DARSINI TASHKIL ETISH TAMOYILLARI

1.1. Ingliz tili darsiga qo'yiladigan talablar

O'qitish jarayonini tushunchasi qamroviga muallim va o'quvchi faoliyati hamda ushbu jarayonning tashkiliy shakllari kiradi. Ta'limshunoslikda bu jarayon o'quv yili, o'quv choragi, dars/mashg'ulot nomlari bilan ataladi. Dars deganda, o'quv faoliyatining ayrim bir bo'lagi tushuniladi. Arabcha dars (madrassa-dars o'tiladigan joy, diniy maktab; mudarris-dars beruvchi, muallim; tadriss-dars berish/o'tish kabi so'zlar bilan o'zakdosh) so'zlashuv tilida mashg'ulot, saboq deb ham yuritiladi. Mashg'ulot atamasi esa mashq so'zi bilan bir o'zaklidir. Mashqlar bajarish mashg'ulotni tashkil etadi. Xorijiy tili darsi/mashg'uloti mashqlar majmuidan iboratdir.

Dars masalasi bo'yicha umumiy ta'limshunoslikda son-sanoqsiz kitobu maqolalar yozilgan, xususiyl ta'limshunoslik bo'lmish xorijiy til o'qitish tadrissi (metosikasi)da esa ko'plab ilmiy asarlarda boblar va maqolalar bitilgan, yirik risolalar ham nashr qilingan. Xorijiy til o'quv predmeti darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'rganiladi (darsdan tashqari ishlar muallim rahbarligida va mustaqil bajariladi). Dars majburiy mashg'ulot sifatida qonunlashtirilgan. Fakultativ mashg'ulotlar darsdan alohida o'tkaziladigan o'quv tadbirlaridandir.

“Xorijiy til darsi” atamasini eshitganda va o'qiganda, uning maqsadi, turlari, bosqichlari va dars rejasi ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Ularning muxtasar bayoniga kirishamiz.

Darsning maqsadi. Xorijiy til darsi boshqa o'quv predmetlaridan ikki ta'rifi, yani dars maqsadi va mazmuni bilan farq qilinadi. Ushbu predmet darslarida nutq o'gatiladi. Xorijiy tilde o'quvchi tayyorlov va nutq mashqlari bajarish bilan band bo'ladi. Xorijiy til darsining asosiy xususiyati uning amaliy, yani nutqiy yo'naltirilganligidir. Gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuvni amalda egallaydilar.

Ta'lim jarayonining tashkil qilinishi bevosita dars maqsadi bilan bog'liq. Maqsad faoliyat bajaruvchining mayog'idir. Yakuniy amaliy maqsad xorijiy til darsining maqsad va vazifalarini belgilovchi omildir. Darsda amaliy maqsaddan kelib chiqib, hususiy vazifalar yechiladi, maqsad (vazifalar) bir darsda birdan uchtaghacha bo'lishi mumkin.

Maqsad natija bilan bog'langan, vazifa faoliyat sharoitiga daxldor. Bir maqsad bo'yicha turli vazifalar bo'lishi mumkin. Bir maqsad bo'yicha turli vazifalar bo'lishi mumkin. O'quv materialining qiyin/osonligi, qiyinchiliklarni yebgish usullari, o'quvchi va muallimning o'zaro birgalika faoliyat ko'rsatishlari, o'quvchining o'rganishga ichki turtkisi singarilar dars vazifasini belgilsh shartlaridir. Qiyin material maxsus o'rganiladi, yani unga bevosita tegishli mashqlar bajariladi. O'quvchi va muallim birga harakat qilishi tushunarli. Ichki turtki tahlil talab masaladir.

Metodik manbalarda ichki turtki (motivatsiya)ning uch toifasi ma'lum: (1) istiqbolga oid (chet elga boorish, tilni o'z ish faoliyatida qo'llash), (2) yaqin kelajakka tegishli (kechalar, konkurslar, olimpiadalarda ishtirok etish, devoriy matbuotga maqola tayyorlash) va (3) muallim topshirig'ini bajarishga qaratilgan motivatsiya bo'ladi. Oxirgisini shartli ravishda yaqin motivatsiya deyish mumkin. Dars vazifalarini bajarishda motivatsiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir darsda vazifa/maqsad tarzida o'quv-metodik hodisalardan nutq ko'nikmasi (til materiali) yoki nutqiy malaka bo'lishi mumkin, yani malaka va ko'nikma darsning maqsad/vazifalarini belgilovchi omillardir. Masalan, falon so'roq gapni nutqda o'rgatish, falon so'z (so'zlar)ni qo'llashni o'rgatish, tekstda falon grammatik hodisani fahmlashni o'rgatish va h.k.z. yana boshqacha maqsad/vazifa bo'lishi mumkin: falon mavzuda yakka nutqni o'rgatish, falon O'NV bo'yicha juft nutqni o'rgatish, falon rasm yuzasidan gapirishni o'rgatish va h.k.z.

Aytilganlardan ko'rinib turibdiki, darsning maqsadi ko'nikma yoki malakani shakllantirishga qaratiladi. Maqsadga ko'ra dars turlarini ajratish mumkin.

Darsning maqsadi birdan ortiq bo'lishi ham mumkin. Buni ta'lim bosqichi, darsning mashg'ulotlar majmuidagi o'rni, o'quv materiali, o'quvchilar tayyorgarligi kabilarga qarab hal qilinadi. Masalan, muayyan nutq malakasini takomillashtirish boshqa amaliy vazifa bilan birgalikda olib borilishi mumkin (gapirish va leksika/grammatikani o'rgatish, gapirish va o'qish, gapirish va tinglash kabilar).

Maqsadni aniqlashda quyidagilar hisobga olinadi: 1) darsning asosiy qismi (ayniqsa boshlang'ich va o'rta bosqichlarda) og'zaki nutqqa bag'ishlanadi, ko'proq gapirish mashqi qilinadi; 2) o'qish texnikasini rivojlantirish uchun ovoz chiqarib o'qiladi, yuqori sinflarda ovoz chiqarib o'qish onda-sonda mashq qilinadi; 3) ichda o'qiganda kitob/matndan axborot olish o'rganiladi. Bunda o'qishga qo'shimcha og'zaki nutq (gapirish) malakasini o'stirish maqsad qilib qo'yiladi; 4) yozuv mashqlari nisbatan kam vaqt talab qiladi, yozish texnikasi bilan yozma tekshiruv bundan mustasno.

Ma'lumki, darsni to'liq og'zaki nutqqa (tinglab tushunish va gapirishga) bag'ishlasa bo'ladi. O'qish va yozuvga butunlay bir dars ajratilishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Dars maqsadi/vazifasi ushbu holatni hisobga olishi lozim.

Darsda muayyan maqsadlarni amalga oshirish uchun, avvalo, maqsadi qanday bo'lishi (bu maqsad so'z bilan ta'riflanadi) va uning miqdori aniqlanadi. Xorijiy tilning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi tamonlari mavjudligi va ularning ham yana boshqa taraflari borligini nazarda olib maqsad belgilanadi.

Dars ta'limiy jihatini olib ko'raylik. O'quvchilarda muloqot yuritish malakasini hosil qilamiz. Muloqot vositalari maqomida gapirish, o'qish, tinglab tushunish va yozuv malakalarini o'rgatamiz. Ular ma'lum ko'nikmalarga asoslanadi. Shunga ko'ra maqsadni aniqlash hollari quyidagicha bo'lishi tabiiy: gapirish /o'qish/ tinglab tushunishning leksik /grammatik/ talaffuz ko'nikmasini shakllantirish, o'qish texnikasini rivojlantirish, gapirish (yakkanutq, juftnutq) malakasini o'stirish. Ushbu maqsadlar nomlanishi haqqoniy tartibda bo'lishi uchun bir shartga rioya qilinadi: albatta aniq mavzu/O'NV yoki til materiali nomma-nom

sanab ko'rsatiladi. Binobarin, muallim darsning maqsadini mana bunday ifodalaydi: falon leksik birliklar yordamida gapirish malakasini o'stirish yoki falon mavzu (masalan, "Qishlog'imiz yoki Shahrimiz") bo'yicha gapirish (yakkanutq yoki juftnutq) malakasini hosil qilish. Muallim tamonidan qabul qilinadigan bunday rasmiylashtirish o'quvchilarga tushunarli shaklda berilmog'i kerak: yangi so'zlar (ular o'rgatiladi) asosida gapirishni o'rganamiz; qishlog'imiz/shahrimiz haqida gaplashaylik.

Dars maqsadining miqdoriy jihati ham aniqlanadi. Bir darsda juda ko'p asosiy maqsad qo'yilishi ma'qul emas. Iloji boricha yetakchi maqsad bitta bo'lib, qolganlari qo'shimsa maqsad bo'lsa, metodik jihatdan to'g'ri yo'l tutilgan hisoblanadi: gapirishning leksik/grammatik ko'nikmasini shakllantirish va talaffuzni o'rgatish; mavzu/O'NV bo'yicha yakkanutq/juftnutq malakasini hosil qilish va yangi leksik/grammatik materialni o'rgatish.

Yuqorida qayd etilganidek, amaliy, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar bilan bir dars o'tkazilishi ham qoidalashtirilgan. Dars maqsadini muallim unga tayyorlanish paytida aniuqlab oladi³.

Muallimning darsga tayyorgarligi. Darsga tayyorlanish muallim pedagogik mahoratining shakllanishida katta ahamiyatga molik. Darsga tayyor bo'lish yo'lida quyidagi tadrijiy metodik choralar qo'yiladi: ta'limning maqsadlarini chuqur anglab yetish va dars maqsad/vazifalarini aniqlab olish; zamonaviy dars mohiyatini tushunib yetish, yani unga qo'yiladigan talablarni aniq tasavvur qilish; o'quv til materialini tahlil etish; mashqlar ketma-ketligi (ierarxiyasi)ni topish, yani ko'nikma va malakalarini shakllantirish/nazorat yo'llarini rejalashtirib qo'yish; darsda ishlatiladigan jihozlarni tanlash; muallim amal qiladigan ta'limiy harakatlarni va o'quvchilar ko'nikma hamda malakalar egallashida kutilmish hatti-harakatlarni oldindan ko'ra olish; dars turini belgilash; darsning va mavzu rejalarini ishlab chiqish.

³ J.J. Djalolov O'rta maktabda ingliz tili o'qitish metodikasi. Toshkent, O'qituvchi nashriyoti 1997 yil.

Xorijiy til darsiga muallim tayyorgarligi mazmuning qayd etilgan tarkibiy qismlarini batfsilroq ko'rib chiqamiz.

Darsga qo'yiladigan zamonaviy talablarni sanab o'tamiz:

1) xorijiy til haqida qoidalar (mavhum otlar)ni bayon etish emas, ko'nikma va malaka hosil qilish darsning asosiy maqsadidir;

2) nutq amaliyoti (mashqlar)da kommunikativ yo'nalishidagi nutq jarayoniga taqlid qilinadi;

3) darsda xorijiy til materialini metodik tashkil qilish bir butunlik shaklida ro'yobga chiqadi (nutq namunasi barcha mashqlarda asosiy birlik hisoblanadi);

4) har qaysi nutq faoliyati turi o'ziga mos mashqlar tizimi yordamida o'rgatiladi;

5) darsning yagona yetakchi maqsadi va yordamchi maqsadlari bo'ladi;

6) dars samaradorligini o'quvchilar faolligi bilan o'lchanadi;

7) darsda nazorat ta'limiy ruhda bo'ladi;

8) imkon boricha dars xorijiy tilda olib boriladi;

9) o'quv materialining mazmuni puxta ishlab chiqilgan metodik usullar va ko'rgazmalilik yordamida o'quvchilarda qiziqish va bilishga intilish uyg'otiladi;

10) dars tarbiyaviy va umumta'limiy vazifa o'tab, o'quvchilar saviyasini ko'tarish, bilish maylini kuchaytirish va tarbiyalash ishlariga ulush qo'shadigan tadbiridir;

11) dars jarayonida o'quvchilarning yoshi va ta'lim bosqichi e'tiborga olinadi;

12) xorijiy til darsi faoliyatini egallashda ma'lum til materialini qo'llashning bir pog'onasidir⁴.

O'quv til materialini tahlil etish. Har bir dars yoki darslar guruhi (paragraf) muayyan til materialini o'z ichiga oladi. Yangi material ma'lum darajada qiyinchilik tug'dirishi ehtimoldan yiroq emas. Buni o'quvchilar til tajribasi

⁴ J.J. Djalolov O'rta maktabda ingliz tili o'qitish metodikasi. Toshkent, O'qituvchi nashriyoti 1997 yil.

“g’alviri”dan lisoniy birlikni o’tkazish orqali aniqlaymiz. Xorijiy til va ona tili (shuningdek, ikkinchi til)ning qiyosiy tahlilini jadvalda namoyish qilish mumkin:

Xorijiy til va ona tilining qiyosiy tahlili

Yangi material	Taxminiy qiyinchiliklar		Qiyinchiliklarning oldiniolish yo’llari					
	Til ichki interferensiyasi	Tillararo interferensiya	Ma’no ochish usullari	Oldin o’rganilgan materialga suyanish	Ona tiliga o’xshashlikka suyanish	Ko’rgazma	Materialni metodik tashkil qilish (nutq namunasini bayon etish)	Qoidani bayon etish
1. Leksikaga oid								
2. Grammatikaga oid								
3. Talaffuzga oid								

Xorijiy tilning qiyinchiliklari darslik muallifi tamonidan mashqlar tuzishda hisobga olinadi. Muallim ushbu darsning o’quv materialini bo’yicha tayyorgarlik ko’rganida, ona tili va xorijiy til hodisalari muqoyasasini tahlil qiladi. O’ta qiyin til birliklariga e’tiborni kuchaytiradi, zarur bo’lsa, qo’shimcha mashq kiritadi.

Mashqlar ketma-ketligini ta’minlash. Hozirgacha shakllangan o’quvchilar ko’nikma va malakalarini hisobga olib, darsda bajarilmish mashqlar tartibotini belgilab chiqish yaxshi natija beradi. Taqdim etiladigan va ilgari o’rganilgan o’quv til materialini ko’nikma va malaka tarkibiga kiritish niyatida uch bosqichli – shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi mashqlar tavsiya etiladi. Darsning mashqlari va talab va materialini muallim sinchiklab tahlil qiladi. Darslikdagi va o’zi beradigan mashqlar bajarilishining eng samarali tartibi ishlab chiqiladi.

Dars uchun jihozlar tanlash. Darsga tayyorgarlik chog’ida o’quv vositalarini tanlashga alohida e’tibor beriladi. Dars maqsadiga, yangi materialga, mashqlarga va o’quvchilar saviyasiga qarab yetarli va kerakli jihoz tayyorlanadi. Texnikaviy va oddiy, o’quv metodik kompleks tarkibidagi va qo’lda yasalgan vositalarni ishlatish va ulardan foydalanish usullari o’ylab qo’yiladi.

Muallim va o'quvchilarning faoliyatida amal qiladigan hatti-harakatlar darsga tayyorlanishda puxta o'ylab chiqiladi. Muallimda **kasbiy-pedagogik malakalar** (rejalashtirish, tadbiq etish, tashkil qilish va tarbiyalash), **metodik malakalar** (o'rgatish, tilni bilish, o'zlashtirish nazariyasini o'quvchilar yosh va shaxs xususiyatlarini bilish) kabilar shakllangan bo'lishi kerak.

Muallim rejalashtirish malakasini egallab til materialini tanlash, o'rgatish, O'NV yaratish, o'quvchilar bilan munosabatda bo'lish, darsni to'g'ri tashkil qilishga qodir bo'ladi.

O'qituvchi ta'limiy malakasi esa dars maqsadi/vazifalarini ro'yobga chiqarish, ko'nikma va malaka hosil qilish bo'yicha o'quvchilar faoliyatini tashkil etish, nutqiy muloqotni o'rgatish va nazorat olib borishni o'z ichiga oladi.

Tashkiliy malakalar deganda, qo'yilgan rejani amalga oshirish, o'quvchilar o'quv ishini tashkil qilish, audiovizual vositalarini ishlatish, o'quvchilarning bilish jarayonini boshqarish tushuniladi. Tarbiyaviy vazifalar orasida darsning ta'limiy va tarbiyaviy maqsadni aniqlay olish, qo'shimcha materialni jalb qilish, xorijiy til materialida o'quvchilarga tarbiya berish tadbirlari uchraydi.

Bilish (tadqiqiy) malakalari sirasiga o'quv materialining ilmiy tahlili, shogirdlarining o'quv faoliyatini kuzatishi, o'zining va boshqa muallimlarish tajribasini tahlil qilish kiradi. Darsga tayyorgarlik chog'ida muallimning **o'qitish malakalari** va o'quvchilarning **o'quv malakalari** atroflicha hisobga olinmog'i lozim.

1.2. Ingliz tili darsi va uning turlari(AND-aralash nutq darslari, SND-sof nutq darslari) va uning mazmuni

Maktabda xorijiy til o'rgatishni tashkil etishning asosiy shakli hisoblanmish dars turlicha tasnif (tipologiya) qilib kelinadi. Ayrim muallimlar darsning maqsadiga ko'ra, ba'zilar dars maqsadi va mazmuniga qarab, yana ba'zi bировlar darsning maqsadi va mavzusini asos qilib, uning turlari haqida fikr bayon etishgan.

Ilmiy adabiyotlarda darsning turlarini farqlashda uning maqsadi asosiy mezon sifatida va o'quvchilar mustaqilligini qo'shimcha mezon qilib olinadi. Birinchi

mezon metodikada yaxshi tahlil qilingan bo'lib, ikkinchi (mustaqil faoliyat) esa muallim rahbarligida ish bajarganda hamda o'quvchi o'zi ko'rsatadigan faoliyatida uning astoydil intilishini hisobga oladi.

Eslatma: Didaktik manbalarda fan asosini o'rgatish nuqtai nazaridan uy vazifasini so'rash, o'quv materialini tushuntirish va dastlabki mustahkamlash, o'zlashtirilgan bilimlarni nazorat qilish kabi darsning tuzilishi yoritilgan va bir paytlar xorijiy til o'qitishda ham tavsiya etib kelingan. Xorijiy tilni nutq faoliyati nazariyasi (psixolingvistika) ga asoslanib o'rgatish boshlangandan buyon umumiy ta'lim nazariyasidagi bir yoqlama yondashishdan voz kechildi.

XX asrning 60-yillaridan boshlab xorijiy til darslari ikki turga bo'linadigan bo'ldi. Yetakchi metodist olimlar ta'rificha, sof nutq darsi (SND) va aralash nutq darsi (AND) nomlari paydo bo'lgan.

Birinchi tur (SND)ga, o'rganilgan til materiali yuzasidan shakllangan nutq ko'nikmasiga asoslanib, nutq malakalarini rivojlantirishga bag'ishlanadigan darslar kiritiladi. Bu darslarning mohiyatini nutq mashqlarini bajarish tashkil etadi. Muallim va shogirdi faoliyati nutq mavzusi O'NV yoki matn asosida axborot berish/olishga qaratiladi. Bir yoki birdan ortiq nutq faoliyati turiga oid malaka hosil qilish uchun bajariladi. Til materialiga nisbatan kamroq e'tibor beriladi.

Ikkinchi tur (AND)da esa til materialini qo'llashga doir mashqlar ko'proq bajariladi. Leksik, grammatik, talaffuz materialini o'zlashtirish bilan bir paytda nutq ko'nikma va malakalarni rivojlantirish ham darsning maqsadiga kiradi. Bunday darslarda yangi material taqdimoti, uning qo'llanilishi va nutq amaliyoti birgalikda olib boriladi. Til materiali va nutq amaliyoti birligini ta'minlovchi mashqlar tizimi ishga tushadi.

Biror mavzu/matn yuzasidan, yoki muayyan til materialida ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi dars (mashg'ulot)lar yig'indisi darslar tizimi nomini olgan. Dars tizimi bir va bir necha paragrafni qamrab oladi. Tizimning umumiy maqsadidan kelib chiqib, yolg'iz dars maqsadi aniqlanadi, u AND yoki SND bo'lishi mumkin.

Dars turi (SND va AND) ma'lum ma'noda mavhum ot hisoblanib, uning kichik turlari, ko'rinishlari amalda yaqqol namoyon bo'ladi. Nutq darsi atamasining o'zi ko'rsatib turibdiki, dars maqsadi nutq malakasini hosil qilishga mo'ljallangan. SNDda matnni o'qish va tushunish, audiotekstni tinglab tushunish, yakka nutq va juft nutq darslari bo'ladi. AND ko'rinishidan misol keltiramiz: yangi nutq namunasini va gapirishni o'rgatish, yangi grammatik hodisani va o'qishini o'rgatish. Demak, o'quv jarayonida nutq faoliyati turi yoki til materialiga qarab, dars turli ko'rinishlarda o'tkaziladi.

Xorijiy til darsining ikki turi (SND va AND)ning 28 modeli (nusxada ko'rinishi) nazariy ishlab chiqilgan va maktabda amaliy joriy etilgan (prof. V.A.Buxbinder tavsiyasi)⁵:

AND (aralash nutq darslari)

1. Talaffuzni taqliddan o'rgatish va og'zaki nutqni o'stirish.
2. Talaffuzni tahlil-taqlid yo'li bilan o'rgatish va og'zaki nutqni o'rgatish.
3. Nutq namunalarida leksikani taqdim etish va qo'llash.
4. Leksikani o'rgatish va og'zaki nutqni o'stirish.
5. Leksikani o'rgatish va o'qish malakasini rivojlantirish.
6. Leksikaning og'zaki nutqda qo'llanilishi.
7. Grammatikani nutq namunalarida o'rgatish.
8. Grammatikani o'rgatish va og'zaki nutqni rivojlantirish.
9. Grammatikani o'rgatish va o'qish malakasini rivojlantirish.
10. Og'zaki nutqda grammatikaning qo'llanilishi.
11. Husnixat (kaligrafiya)ni o'rgatish va yozuv malakasini o'stirish.
12. Imlo (orfografiya)ni o'rgatish va yozuv malakasini o'stirish.
13. O'qilish qoidalarini o'rgatish va yozuv malakasini o'stirish.

SND (sof nutq darslari)

⁵ J.J. Djalolov O'rta maktabda ingliz tili o'qitish metodikasi. Toshkent, O'qituvchi nashriyoti 1997 yil.

1. Nutq namunalari ishtirokida juft nutqni o'rgatish.
2. Muhokama vositasida juft nutqni o'rgatish.
3. Rollarda juft nutqni o'rgatish.
4. O'NV yordamida juft nutqni o'rgatish.
5. Nutq namunalari ishtirokida yakka nutqni o'rgatish.
6. Mazmunini aytirib yakka nutqni o'rgatish.
7. Hikoya qildirib yakka nutqni o'rgatish.
8. Tasvirlash orqali yakka nutqni o'rgatish.
9. Yakka nutqni tinglab tushunishni o'rgatish.
10. Tinglab tushunishni juft nutqda o'rgatish.
11. Og'zaki nutqning ilgarilashi sharoitida o'qib axborot olishni o'rgatish.
12. Tahlil unsurlari bilan mutoalani o'rgatish.
13. Sintetik tarzda mutoalani o'rgatish.
14. Yozuvni o'rgatish.

Dars rejasida muayyan model, albatta, aniq o'quv materiali, mavzu, O'NV, matn bilan to'ldiriladi, masalan, 4/17-SND (O'NV yordamida juft nutqni o'rgatish)ni olsak, dars maqsadi "Sinfingizda yangi o'quvchi bor, uning kimligini, qayerda turishini so'rab biling, O'NV bo'yicha juft nutqni o'stirish" deb ifodalashi mumkin).

1.3. Dars – pedagogik asardir

Dars o'quv yurtida bilim berish, ma'lumot berish va olish maqsadida o'tkaziladigan saboq, o'rgatish va o'rganish jarayoni.

Har qanday dars o'zining didaktik, psixologik, lingvistik va metodik asosiga ega. Har dars reja asosida tashkil qilinadi. Dars tushunchasi quyidagilarni qamrab oladi:

- **Dars turlari**
- **Dars maqsadi**
- **Dars mazmuni**
- **Dars bosqichlari**

- **Tashkiliy davr**
- **Til muhitini yaratish**
- **So'zlash va baholash**
- **Taqdimot**
- **Darsni yakunlash**
- **O'qituvchi faoliyati**
- **O'quvchi faoliyati**
- **Dars konspekti**

O'quv yurtlarida ilm, bilim, ma'lumot olish va berish maqsadida o'tkaziladigan mashg'ulot, saboq yoki dars deb yuritiladi. Dars o'rgatish va o'rganish jarayonidir. Dars maktabda o'quv ishlarini tashkil etishning asosiy shakli hisoblanadi. Dars bir xil tarkibdagi o'quvchilar bilan qat'iy jadval asosida ma'lum didaktik maqsadni amalga oshirish jarayonidir.

Ma'lumki, darsda o'qituvchi va o'quvchi ishtirok etadi. O'qituvchi nuqtai nazaridan esa dars o'qish o'rganish jarayoni hisoblanadi. Aslida dars o'qish va o'rganishga o'rgatish jarayoni bo'lgani ma'qulroq. Bilimlarni egallash o'quvchilarning faolligi, o'qish, o'rganish faolligi asosidagina amalga oshiriladi. Dars jarayonida ta'limning psixologik va didaktik sharoitlariga asoslanish asosiy vazifa bo'lishi kerak.

Dars faqatgina o'qituvchining tashkiliy pedagogik harakati bo'lmay balki, ta'lim oluvchi ta'lim beruvchining ikki tomonlama faoliyatidir.

Shuning uchun ham dars nazariyasini hal qilishda bir tomondan nutq faoliyati nazariyasining dalillarini hisobga olish zarur.

O'quvchining bilish faolligiga ta'sir qiladigan ruhiy holat va jarayonlar darsning psixologik asosi hisoblanadi. Bunga birinchi navbatda diqqat, bilimlarni egallashga qaratilgan ichki tayyorlik, ularning bilish istaklari, fikriy faolligi, irodaviy o'z-o'zini majbur qila olish ishdagi qat'iyligi va o'quvchining intilishlari kiradi. O'quvchining bilim olishga qaratilgan ijobiy kayfiyati uning urinishlari ham ko'p narsaga bog'liq.

Darsning didaktik asoslari deganda, o'quvchilar diqqat e'tiborining ta'limiy vosita va usullari bilan o'quv materialiga jalb qilish o'quvchilarda bilish jarayoniga va fikrlash faolligiga qanday qilib ta'sir o'tkazish o'quvchilar bilishga ichki tayyorlash, o'quvchining qiziqtirish, intilish kabilarni kiritish mumkin.

Xorijiy til darsining boshqa predmet darslardan sifat jihatlaridan farq qilishi tamomila tabiiydir, chunki xorijiy til predmeti o'ziga xos hususiyatga ega. Bu hususiyatlarning xorijiy tilni o'quv predmeti tahlil qilish asosidagina aniqlash mumkin.

Xorijiy til darslarining maqsadi o'quvchilarni xorijiy tildan muomala sifatida foydalanishga o'rgatishdir.

Xorijiy til darslaridan bu hususiyati bilan boshqa predmetlardan, shu jumladan asosiy vazifasi fikrni ifoda etishda qo'llaniladigan usullarni anglash va til tizimining ma'nosini tushunishdan iborat bo'lgan ona tili darslaridan ham farq qiladi.

Dars rejasini tuzishda, kalendar – tematik rejaga asoslanadi.

Darsning plan konspektini tuzishda quyidagi omillarni hisobga olish zarur.

1. Xorijiy til darsida nutqiy ko'nikmalar shakllantiriladi va malakalar rivojlantirildi.
2. Darsning mazmuni sifatida qat'iy ketma-ketlik asosida bajariladigan mashqlar kompleksi xizmat qiladi.
3. Dars jarayonida amaliy, umumta'lim, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni muomala jarayonida amalga oshiriladi.
4. Darsni rejalash jarayonida o'quvchilarni yosh hususiyatlari hisobga olinadi.
5. Har bir darsning vaziasi boshqa darslarga bog'langan holda darslar qatorida belgilanadi.
6. Til materiali kompleks ravishda taqdim qilinadi. Ta'lim birligi bo'lib nutq namunalari xizmat qiladi. Dastlabki bosqichda ta'lim birligi sifatida jumla

yoki dialogik birlik, keyingi bosqichda esa mantiqan va tematik bog'langan nutq naminasi xizmat qiladi⁶.

7. Nutq faoliyatining har bir turi uchun mashqlar kompleksi mavjud va darsda ulardan foydalaniladi.

8. Nutqiy amaliyot tabiiy muomila sharoitiga yaqinlashtiriladi; ya'ni muomilaga yo'naltiriladi, matnlashtiriladi va vaziyatga moslashtiriladi.

9. O'qituvchi faoliyati o'quvchida qiziqish uyg'otishi va ularni bilishga intilishini kuchaytirishga erishiladi.

10. Har bir darsda takrorlash uchun materialdan foydalaniladi.

11. Darsning samaradorligi o'quvchilarning nutqiy faolligi bilan belgilanadi.

12. Darsda o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam kuzatib boriladi.

13. Darsning mazmuni o'quvchilarni uy vazifasini bajarishga tayyorlaydi.

14. Dars xorijiy tilda o'quvchilar uchun tushunarli tarzda olib boriladi.

15. Xorijiy til darsi darslar tizimining tarkibiy qismi hisoblanib har bir darsda asosiy e'tibor nutq faoliyatining turlarida a'lum til materialini o'zlashtirib olishga qaratiladi.

1.4. Dars turlari va bosqichlari

Metodikada xorijiy til darslarini ikki turga bo'lish qabul qilingan.

1-tur. Darsning birinchi turida o'quvchining faoliyati til materialidan foydalanishga oid ko'nikmalarbi shakllantirish va malakalarini rivojlantirishga qaratiladi. Bunday darslarda:

a) Yangi material bilan tanishtirish va qo'llashga o'rgatish.

b) Yangi materialni qo'llashga o'rgatish asosiy o'rinni egallaydi.

2-tur. Bunday darslarda o'quvchilar nutq faoliyatini turlarida muomila qiladilar. Natijada nutq faoliyati turlarida biri yoki nutq faoliyatining barcha turlari bir-biri bilan bog'liq holda rivojlantiriladi.

⁶ Hoshimov U. X. va I. Ya. Yakubov "Ingliz tili o'qitish metodikasi". 1893 yil. O'qituvchi nashriyoti

Ta'lim jarayonida darsning ikkala turi nutq faoliyatining hususiyati, o'quv material va ta'lim vositalarining hususiyatlarini hisobga olgan holda almashtirib turish maqsadga muvofiq.

Darsni tashkil qilishda va o'tkazishda taniqli ingliz metodisti M.Yuset ta'kidlagidek asosiy e'tibor:

- a) O'quvchilarning tildan foydalanish mashqlariga vaqtni ko'proq ajratishga;
- b) Sinf ustidan nazorat saqlashga;
- c) O'quvchilarda yuzaga keladigan charchoqni kamaytirishga qaratilishi lozim.

Ilmiy adabiyotlarda o'quvchilarni diqqatini bir ob'yektga to'plashning optimal muddati 15-20 minutdan iborat ekanligi va bu muddat tugagan chog'da o'quvchilar diqqatini susayishi ta'kidlagan.

Tajriba o'quvchilarning ishga layoqadli muddatining optimal davomiyligi ish turlarini o'zlashtirilib turganda 25-30 minutni tashkil etadi.

Har bir darsda o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirishlariga va o'z bilimlarini amalda qo'llay oladigan bo'lishlariga erishilishi ularda ijodiy faoliyat ko'nikmasi hosil qilish va shaxs fazilatlarini tarbiyalab berish maqsadi qo'yiladi. Har bir dars ta'limning umumiy maqsadi to'ldiriladi, shu maqsadi uchun xizmat qiladi.

Metodik adabiyotlarda xorijiy til darsining maqsadi ikki hil talqin qilinishini kuzatish mumkin.

1. Til materialini taqdim etish.
2. Nutq ko'nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirish.

Yuqoridagi ikki tomonni bir-biridan ajratish xatodir. Til materialini o'zlashtirish o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirisha uchun asos bo'lib xizmat qilgandagini dars, nutq faoliyati ko'nikmasi va malakalarini hosil qilish va rivojlantirishning bosqichi sifatida ahamiyat kasb etadi.

Har bir dars tashkiliy davrdan boshlanadi: Bu davrda o'quvchilar sinf xonasi, ta'lim vositalari darsga tayyorlanadi. Ayniqsa, o'quvchini psixologik jihatdan darsga tayyorlash muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar avvalgi dars yoki tanaffusda bo'lgan biror voqea hodisa e'tiborini ta'sirida bo'ladilar. Shuning uchun ham o'qituvchi o'quvchilarning e'tiborini, diqqatini, hayoli fikriy faolligini o'z darsiga burishi lozim. O'quvchilarda darsda ichki tayyorgarlikni ta'minlash eng dolzarb vazifadir. Odatda bu davrda quyidagi usullar keng qo'llaniladi. Jumladan:

1. O'qituvchi darsga kiradi, sinfni ko'zdan kechiradi, boshqa ish bilan band bo'lgan o'quvchi yoki o'quvchilar tayyor bo'lgunlariga qadar ularni kuzatgan holda kutib turadi, so'ngra salomlashadi. Bu o'rinda o'qituvchi sinfning tozaligi, doska, latta, bor kabi vositalarning darsga tayyorligi, o'quvchilarning kiyimlari, ko'rinishlari, bosh kiyimlarning yechganligi va boshqalardan qoniqqanidan so'ng salomlashsa va bu har darsda takrorlansa ushbu o'qituvchining darsiga talab darajasida tayyorgarlik ko'rishlari odat tusiga kirib qoladi.

2. Ma'lum o'quvchining shaxsiga tegmagan holda tanbeh usuli bilan sinfxonani darsga tayyorlash va jimlikni ta'minlash mumkin.

3. O'quvchilarni avvalgi taasurotlaridan chalg'itish, ulardan ichki faollikni ta'minlash maqsadida barcha o'quvchilar biladigan va ushbu darsga aloqasi bo'lgan voqeani eslatish mumkin.

4. O'quvchilar diqqat e'tiborini jalb qilish niyatida o'qituvchining o'z namuna ko'rsatish qog'ozlarini turishi, stol oldiga kelib tekshirishi, kitob daftarlarini stol ustiga qo'yishi va o'quvchilardan ham ushbu talab qilishi mumkin. Bularning hammasi o'qituvchining muomila madaniyatiga, o'quvchilarga bo'lgan samimiy munosabatiga va uning pedagogik kollektiviga, obro' e'tiboriga, qat'iyatiga, o'zini tutishi va bir so'z bilan aytganda pedagogik mahoratiga bog'liq.

Darsni boshlashdan oldin ehtiyotsizlik bilan qilingan har bir harakat yoki aytilgan so'z o'quvchilarni ranjitishi, darsdagi psixologik holatini, vaziyatni buzishi va o'quvchilar ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatish mumkin. Xonada o'quvchilar e'tiborini tortadigan narsalarni o'quvchilar e'tiboridan chetda saqlash

lozim. Shuning ham yangi darsga tegishli bo'lgan ko'rgazmali qurollar, tablitsalar va rasmlarni avvaldan ilib qo'yish tavsiya qilinmaydi. Shu bilan birga darsdan avval turli tadbirlar haqida xabar berish yaramaydi.

Tashkiliy davr ko'p vaqt olmasligi lozim. Pedagogikada bu davr uchun bir necha sekunddan bir minutgacha vaqt beriladi. Buni ta'minlash uchun o'qituvchi avvalgi darslarida bunga ko'proq vaqt ajratishi lozim. Toki sinfni darsga tayyor holda turishi o'qituvchi va o'quvchilar ichun ham odat tusiga kirib qolsin. "U domlamiz indamaydi", "Domlamizga baribir" degan jummalarni bir o'quvchida eshitish mumkin. Qaysi jumalani aytirish o'qituvchining o'ziga bog'liq. Shuni unutmash kerakki, bilimdon, talabchan o'qituvchini aksariyat o'quvchilar hurmat qiladilar. Tashkiliy davr o'quvchilarga ham ruhiy ham jismoniy kuch quvvat berishi lozim. Bu ko'pincha o'qituvchining ovozi, salomlashishi, kayfiyati, o'zini tutishi, tashqi ko'rinishi, yumorga boyligi bilan belgilanadi.

Xorijiy til darslarida boshqa darslarga qaraganda bir bosqich ortiqcha holatni, komponentni kuzatish mumkin.

Darsni til muhitini yaratishdan boshlash shu komponentga taalluqlidir. Til muhitini turli usullar bilan yaratish mumkin. Ulardan ayrimlarini keltiramiz:

- Guruh navbatchisining xorijiy tildagi axborotini tinglash: o'quvchi, oy, kun, sinfning darsga tayyorligi, o'quvchilarning darsda ishtiroki, ob-havo haqida ma'lumotni beradi. Navbatchining axboroti darsdan darsga mazmunan boyish shaklan esa murakkablashib borishi lozim.

- O'quvchilarni o'zaro so'zlashishi ham juda yaxshi natija beradi. O'qituvchi sinfga kerib darsni boshlagandan so'ng bir o'quvchini doska oldiga chiqaradi, u sinfga bir qator savollar beradi. Uning savollari tugagach o'quvchilar o'z joyida turib unga savollar beradilar. Shunday qilib 3-4 minut davom etadigan o'quvchi-sinf va sinf-o'quvchi so'zlashishi til muhitini hamda darsga zarur bo'lgan ish sharoitini yaratadi. Agar bunday suhbatlar muntazam yangi mazmun bilan to'ldirilib borilmasa va muntazam o'tkazilmasa yaxshi natija bermaydi.

Darsning boshlanishi hilma-xil bo'lishi uchun, ba'zi o'quvchilar sinfga kirishi bilanoq o'quvchilarga daftarni ochishni, misolni yozishni va o'qituvchi doskaga nima yozsa shni ko'chirishni buyuradi. O'qituvchi doskaga oldingi darsdan o'rgangan so'zlar va iboralarni o'z ichiga olgan bir necha gap yozadi. Ushbu material og'zaki ishlanadi.

Boshqa o'qituvchilar darsn o'quvchilarga to'la tushunarli material asosida tuzilgan hikoya bilan boshlaydilar. Bu asosan tinglash mashqlari bo'lib, uning materiali qanchalik qiziqarli bo'lsa, o'quvchilar uni shuncha qiziqish bilan eshtadilar.

Ko'pchilik muallimlar talaffuz mashqlaridan boshlashni foydali deb hisoblaydilar. Bunday mashqlar bajarib o'quvchilar tovushlarni, tovush birikmalarini va malakalarini nazorat qilish niyatida o'tilgan dars so'raladi, o'quvchilar faoliyati bilinadi.

O'tilgan darsni so'rash va baholash onglilik, ketma-ketlilik va boshqa bilimlirni o'zlashtirishning mustahkamligi prinsiplariga asoslanadi. Ta'lim jarayonida, ayniqsa xorijiy til darslarida o'tilgan darsni o'zlashtirib olmagan bo'lsa olg'a siljish mumkin emas. Olg'a siljish ikki yo'l bilan amalga oshiriladi.

Ulardan birinchisi:

1. Olg'a siljish uchun o'qituvchi o'rgatilgan materialni o'quvchilar tomonida o'zlashtirish sifatini tekshiradi va baholaydi.

2. Olg'a siljish uchun o'qituvchi o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalarni faqat tekshiribgina qolmasdan, balki o'qituvchi o'quvchiga materialni bayon qilishga yordam beradi. O'qituvchi chuqurroq fikrlashga o'rgatadi. Bu holatda so'rash jarayoni so'rash – o'rgatish jarayoniga aylantiriladi. Pedagogik nuqtai nazardan bu jarayon ko'proq yoqlanadi va maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Shuning uchun hech qachon tekshirish uchun tekshirmaslik, balki nazorat qilib borish va ta'lim berib nazorat qilishga erishmoq lozim.

Darsda uy vazifasini tekshirish bosqichini bolishi har doim ham shart emas, balki darsning boshqa bosqichlariga qo'shib yuborish mumkin. Bu o'qituvchining

uddaburonligiga bog'liq. So'rash jarayoni o'quvchining qiziqishi va faolligini oshirish va o'quvchi uchun kelgusi darsga asos bo'lib xizmat qilishi lozim. Uy vazifasini so'rashga oid topshiriq o'quvchining bilim darajasiga bog'liq bo'lishi va darsdagi ishning davomi bo'lishi lozim.

O'rta maktab o'quvchilariga xorijiy tilda gapirish va o'qishni o'rgatish vazifasi yuklagani uchun ham nazorat ob'yekti bo'lib nutq faoliyatining ushbu turlariga oid ko'nikma va malakalarini rivojlanganlik darajasi bo'lishi lozim.

O'tilgan dars yuzasidan uy vazifaini so'rash yangi mavzuga o'tish uchun ko'prik vazifasini bajarishi lozim. Biroq yangi mavzuga o'tishdan avval so'ralgan dars materiali yana bir bora o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni faol ishtirokida qisqacha takrorlanishi ayni muddao bo'lar edi. Bu takarorlash frontal savol – javoblarda o'qituvchining qisqacha izohi, sinov savollar bilan o'quvchilarga murojaati va boshqa usullardan iborat bo'lishi mumkin.

Zamonaviy metodika xorijiy til darsining asosi - muomilaga o'rgatish bo'lishi lozim deb hisoblaydi. Shu munosabat bilan dars bosqichlari, qismlari haqida turli fikrlarini guvohi bo'lishi mumkin⁷.

Yangi materialni taqdim qilish, tushuntirish, avval keladimi yoki o'quvchilar tomonidan yangi materialni esga tushurish mashqlarida keyin bo'ladimi baribir, dastlabki ko'nikmalarni tarkib toptirish bilan bog'liq. Tushuntirish va mashqlar bajarish bir jarayonda olib boriladi. Yangi til materiali o'qituvchi tamonidan og'zaki yoki yozma ravishda qilinadinimi bundan qat'iy nazar, "Umumiy metodika" avtorlari fikricha, dars boshlanishida tushuntirilishi maqsadga muvoviqdir. Bu yangi materialni o'zlashtirish uchun yetarli vaqt ajratish va o'quvchilarning materialni o'zlashtirib olganliklarini nazorat qilish imkoniyatini beradi.

Kombinatsiyalashtirilgan nutq darajasida dars bosqichlarining quyidagi izchilligini kuzatish mumkin.

⁷N.N. Azizxo'jayeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.

- a) Til muhitini yaratish.
- b) Yangi materialni o'zlashtirish.
- c) Yangi material asosida nutq faoliyatining turlariga oid ko'nikmalarni shakllantirish va malakalarini rivojlantirish.

Sof nutq darslarida nutq mashqlari bajarilib bu jarayonda takrorlash, mustahkamlash va o'quvchilar malakasining rivojlanish darajasini nazorat qilish qo'shib olib boriladi.

Darsning tarkibiy qismi haqida turli fikrlar mavjud. Fikrimizcha ingliz tili o'qitish metodikasi avtorlari U.X.Hoshimov, Ya,Yoqubov dars jarayonini uch bosqichga bo'lib amalayotga yaqin turganlar. Ularning fikricha birinchi bosqichda xorijiy til muhiti yaratiladi, ya'ni:

- a) dars tashkil qilinadi
- b) fonetik mashg'ulot
- c) og'zaki nutqqa oid mashg'ulot o'tkaziladi.

Darsning asosiy qismini tashkil qiluvchi ikkinchi bosqichda yangi til materiali taqdim qilinadi, tinglab tushunishni, gapirish, o'qish, yozish ko'nikmalari va malakalarini shakllantiradi. Darsning yakunida, ya'ni uchinchi bosqichda

- 1) darsga yakun yasaladi
- 2) o'quvchilarning darsdagi faoliyatlari izohlanadi, baholanadi
- 3) uy vazifa beriladi.

Yangi materialni ma'lum qilish va tushuntirish alohida bosqichmi yoki yo'qmi bu holda bahsni to'xtatib aytishimiz mumkin bu darsning tarkibiy qismiga kiradi⁸. Yangi materialni tushuntirish jarayonida o'quvchilarning tildan amalda foydalanishga o'rgatayotganimizni unutmasligimiz kerak. Shuning uchun ham bu jarayonning metodik mazmunini

- 1. Nutqqa yo'nalganlik.
- 2. Situativlik

⁸ Hoshimov U. X. va I. Ya. Yakubov "Ingliz tili o'qitish metodikasi". 1893 yil. O'qituvchi nashriyoti

3. FunkSIONALIK prinsiplari tashkil qilish kerak (Ye.I.Passov).

Nutqqa yo'nalganlik deganda:

- a) Materiallarning amalda qo'llanilishini hisobga olish.
- b) Barcha mashqlarni nutqqa mosligi.
- c) Motivga alohida e'tibor berish lozim.

Situatsiya, vaziyat-mavjud holatlar yig'indisi,

- Shart-sharoitlar kompleksi
- Harakatlar kompleksi
- Munosabatlar yig'indisi majmui
- Vaqealar ketma-ketligi
- Tur muhiti
- Tilga oid bo'lmagan muhit
- Til oid bo'lgan va bo'lmagan shart-sharoitlar
- Nutq harakat uchun fon
- Nutqiy undov

Demak, situativlik deganda nutqining shakl va mazmun jihatdan muhitga mosligini tushunish mumkin.

Funksionallik birinchi navbatda nutq birliklarining vazifasini nazarda tutadi.

Darsda qo'llanilayotgan har bir nutq birligi ma'lum vazifani aniq ifodalashi lozim. Til materialini yuqoridagi prinsiplarni hisobga olgan holda taqdim qilinishi va tushuntirilishi lozim, yangi materialni tanlash, taqdim etish va tushunganlikni nazorat qilish darsning maqsadidan kelib chiqadi. Materialni taqdim etishning shakl va usullari materialni xususiyati, ta'lim bosqichi, o'quvchilarning bilim darajalariga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Birgina talab har qanday holatda ham o'zgarmay qolaveradi. Bu o'quvchilar tomonida materialning to'g'ri idrok qilinishi va tushuntirilishidir. To'g'ri tushunish ko'p jihatdan taqdimotning to'g'riligiga bog'liq. Bu o'rinda material taqdimotining miqdorlanishiga alohida e'tibor berilishi lozim.

Ushbu bosqichda bilimlar ko'nikma darajasiga ko'nikmalar esa malaka darajasiga yetkazilishi lozim. Bunday maqsadga faqat takrorlash, mashq yo'li bilan erishiladi.

Fonetika, grammatika va leksikaga oid bilimlar fonetik, grammatik, leksik ko'nikmalar ya'ni ongli ravishda bajariladigan ish-harakat darajasiga ko'tariladi, ko'nikmalar esa malakalarga qisman avtomatizm darajasiga yetkazilgan nutqiy malakalarga yetkaziladi.

Yangi materialni taqdimoti o'tilgan materialni mustahkamlash va yangisini tushunganlikni nazorat qilish bilan hamohang bo'lishi lozim. Har qanday nazorat o'rgatuvchi ta'limiy nazorat darajasiga ko'tarilgandagina yaxshi samara beradi.

O'quvchilarning darsdagi faoliyati aqliy faoliyat hisoblanadi. Bu faoliyat ma'lum harakat va operatsiyalar egallashga qaratiladi. Bu harakat va operatsiyalar tinglash paytidagi ma'lum til materialini bilib olish, tanib olish va tushunish, kontekstdagi so'zni ma'nosini aniqlash, leksik birikmalarni va sintaktik birliklarni qovushtirish va boshqalar bo'lishi mumkin.

Darsning tuzilishi ya'ni uning bo'linadigan bosqichlari va ularning izchilligi, o'qitish uslubiga, ta'lim bosqichida, darsning maqsadi va mazmuniga bog'liq. Odatda o'rta maktablardagi xorijiy til o'qitishning tarkibiy qismlari yoki bosqichlari quydagilardan iborat:

1. Tashkiliy qism
2. O'tilgan materialni esga solish
3. Yangi material bilan ishlash
4. Yangi materialni mustahkamlash
5. Uyga vazifa berish⁹

⁹ Hoshimov U. X. va I. Ya. Yakubov "Ingliz tili o'qitish metodikasi". 1893 yil. O'qituvchi nashriyoti

2-BOB. INGLIZ TILI DARSLARIDA LEKSIK MATERIAL TANLASH TAMOYILLARI

2.1. Ingliz tilini o'rgatishda leksikaning ahamiyati

Leksikani o'rgatish, tilni o'rgatishning asosini tashkil qiladi. Leksika o'rganiladigan, o'rgatiladigan so'zlar va so'z birikmalari yig'indisidir.

Leksikani mukammal egallamay turib, nutq faoliyatining turlarini o'rgatib, o'rganib bo'lmaydi. U nutq faoliyatlari uchun material sifatida ishlatiladi.

Nutq uchun material juda zarurdir. Material bo'lmasa nutq sodir bo'lmaydi. Inglizcha nutqni tinglab, o'rgangan so'zlar asosida uning mazmunini tushunish mumkin. O'quvchi, talaba so'zlarni taniy olmasa, bilmasa ma'lumot olmaydi, nutqning mazmuni mavhumligicha qoladi. Tinglab tushunishning leksik tomoni ustida ishlaganda, uni tinglab qabul qila olish, taniy olish mashqlari keng ishlatiladi, chunki leksikani tinglab qabul qilish, taniy olish ham o'z xususiyatiga, qiyinchiligiga egadir.

Gapirishning leksik tomonini o'ziga xos xususiyati mavjud. O'quvchi va talaba uni bilmasa gapira olmaydi, bilganda ham o'rniga qo'ya bilishi kerak. O'qishning leksik tomoni ham aloqida qiyinchilik tug'diradi. O'quvchi, talaba o'qishda ko'rib qabul qiladi. Shuning asosida o'qib ma'lumot olish, tushunish uchun so'zlarni taniy olish, o'qiy olish, ularning ma'no, mazmunini bilgan, o'rgangan bo'lish kerak.

Fikrni yozma bayon qilishning leksik tomoni ustida ham aloqida ishlash kerak. O'quvchi, talaba u orqa-li mazmunli, to'g'ri ma'lumot yozib bera olishi uchun so'zni yoza olishi, talaffuz qila olishi, o'qiy olishi zarur.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, hammasi uchun leksika kerak. Shu sababdan o'quvchilarga nutq faoliyatlarini o'rgatishda leksikaning o'rni muhimdir.

Leksikani o'rgatish o'quv yurtining maqsad, mazmunlariga moslashtirilib, unga javob beradigan qilib o'rgatiladi. Bu o'quvchi, talabalar, o'quv yurti uchun chiqarilgan chet tili dasturida bayon qilinadi.

Chet tili dasturi bo'yicha nutq faoliyatlarini o'rgatishda leksik materialni o'rgatish maqsad va vositadir. Yangi dasturda har bir sinf uchun leksik minimum soni ko'rsatilgan. Unda 5-sinf uchun 300 ta leksik birlik, 6-sinf uchun 300 ta, 7-sinf uchun 250 ta leksik birlik, 8-sinf uchun 150 ta leksik birlik, 9-sinf uchun 100 ta leksik birlik. Hammasi bo'lib dastur talabi bo'yicha o'rta maktabda 1100 ta leksik birlik o'rgatiladi¹⁰.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun dasturida ham leksika soni beriladi. O'quvchi, talabalar dastur talabi bo'yicha leksikani amalda nutq faoliyati turlarida qo'llay olishlari, ya'ni leksikani qo'llab, nutqni tushuna olishlari, gapira olishlari, yoza olishlari zarur.

❖ **Leksika** tildagi so'z boyligi bo'lib u tilda 3.000.000-5.000.000 gacha bo'lishi mumkin. Katta yoshdagi ilmi kishilar ona tilida 6000-1000000 so'zlar biladilar. Kundalik hayotda 1500 dan 2500 gacha so'z ishlatadilar.

Cheklanganlik va cheksizlik tanlash zaruratini tug'diradi. Tanlashni Ya.A.Kalenskiy 17-asrda 800 so'z bilan boshlab berdi. Nemis, ingliz va fransuz tillarining ko'p qo'llanadigan so'zlar yaratildi (1960).

Unga 3000 so'z kiritildi va ulardan 1000 tasi aktiv hisoblanadi. Lug'atga kiritilgan so'zlar quyidagi prinsiplar asosida tanlandi:

- Bog'lana olish yoki birikish prinsipi
- Stilistik cheklanmaganlik prinsipi
- Semantik prinsip (Nagel, Bolsen)
- Ko'p ma'noli va tushunarli so'zlar
- So'z yasash prinsipi (eng ko'p ma'noga ega bo'lgan so'zlar)
- Nutqda so'zlanish prinsipi
- O'rta maktab uchun mo'ljallangan ko'p uchraydigan so'zlar

Metodologik texnologiya - so'zlarni o'zlashtirishga ko'ra tiplarga, turlarga ajratish. Uni guruhlash tushunchasi bilan chalkashtirmaslik kerak. Guruhlash:

¹⁰ Ingliz tili o'quv fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun dastur. T. 1999 y. 15-bet.

- mavzu bo'yicha turkumlash
- tuzilish bo'yicha bo'lishi mumkin

So'z o'zlashtirishda ayrim qiyinchiliklar mavjud:

- Ayrim so'zlarga xos bo'lgan qiyinchiliklar;
- Xorijiy til va ona tili so'zlari o'rtasidagi tafovut, ma'no, qo'llanish (o'zbekcha va turkcha zo'r-zo'r);
- Xorijiy til so'zlari o'rtasidagi qiyinchiliklari (omonim, omofon, omograf).

• **Taqdimot –**

Tanishtirish: shakl-talaffuz, orfografiya, transkripsiya

- ❖ Ma'no (semantizatsiya)
- ❖ Qo'llanish

Ma'noni ochish (semantizatsiya) usullari: Tarjimali-tarjimasiz ko'rsatish

- ❖ Predmetni
- ❖ Harakatni
- ❖ Rasmni
- ❖ Chizmani
 - ❖ Sinonim
 - ❖ Antonim
 - ❖ Omonim
 - ❖ Izohlash
 - ❖ Kontekst

Mashq-leksik ko'nikmalarni hosil qilish:

So'zning qo'llanishini namoyish qilish;

Mashq turlari:

Retseptiv:

- Naqd lug'at boyligini o'zlashtirish
- Lug'at tarkibini kengaytirish
- Payqash, bilib olish, topib olish ko'nikmalrini shakllantirish

Reproduktiv:

- Qo'llanish va qo'llash

- Fikr bayon etish

Retsepsiyada - tanib olish.

Reproduksiyada - qo'llash, ishlanish

O'zlashtirish - leksikani erkin tanlay olish

- Leksikani erkin qo'llash;

- Egallash, o'zlashtirish - ko'nikma darajasida bilish demakdir.

Oddiy bilish so'z ma'nosini yodda saqlash, shaklni tanib olish nazarda tutiladi. O'rta maktablarda xorijiy tilni o'rgatishdan ko'zlangan amaliy maqsad o'quvchilarni shu tilda muomalaga o'rgatishdir. Xorijiy tilda muomala qila olish uchun o'quvchilar so'z boyliklarini egallashlari zarur. Tildagi so'z boyliklarini egallamay turib na tunglab tushunish, na gapirish mumkin. Tilni lug'at tarkibini egallash o'quvchilarning dunyo qarashini kengaytiradi, ularning filologiyaga oid bilimdonligini oshiradi.

Ma'lum tilning lug'at tarkibiga kiruvchi so'zlar **leksika** deyiladi. Leksika tilning doimo rivojlanuvchi elementi hisoblanadi. Ayrim eskirgan so'zlar lug'at tarkibidan chiqib, yangi so'zlar qo'shilib turganligi uchun ham har qanday tilning so'z boyligini aniq hisobga olish juda murakkab.

2.2. Ingliz tili leksikasini o'rgatishning psixologik xususiyatlari

Ingliz tili leksikasini o'rgatayotganda, o'rganayotganda uning psixologik xususiyati salmoqli ta'sir qiladi. Har bir o'qituvchi uni hisobga olishi, unga tayanishi, undan foydalanishi zarur.

Psixologik nuqtai nazardan so'z yoki leksika murakkab bo'lib, u og'zaki nutqni qabul qilib tushinishda qo'zg'atuvchidir.

So'zda qo'zg'atuvchi sifatida (uning tuzilishida) 2 ta qism-tinglash va ko'rish tomoni mavjud. Biz so'zni eshitamiz, tinglaymiz yoki yozilganini ko'ramiz, yana u orqali inson murakkab javob qiladi.

Insonning javobi sifatida esa soʻzning yana uchinchi qismi - harakat qismi bor. Buning esa oʻz oʻrnida yozuv, talaffuz tomonlari bor. Soʻzning talaffuzi yoki yozuv orqali ifodalanishi harakat bilan bajarilib turiladi. Shuning uchun soʻzni oʻzlashtirish miya yarim sharlari qobigʻining koʻrish, tinglash harakat qilish oʻrinlarida vaqtincha murakkab nerv aloqalarining sodir boʻlishidir. Soʻz murakkab boʻlgani uchun faqatgina qabul qilinmasdan, balki tasavvur ham qilinadi. Ikkalasida ham insonning ongida soʻzning tasviri hosil boʻladi, birinchisida faqatgina soʻzning talaffuzi boʻlsa, ikkinchisida esa eslab tinglashni qoʻzgʻatuvchiligidir. Demak, soʻzning psixologik tuzilishi mohiyati uni tinglash, koʻrish va talaffuz qilish va yozuv harakat tomonlaridan iborat.

Soʻzning maʼnosi ham boʻladi. Soʻzning maʼnosi deganda esa biz uni belgilaydigan predmetga yoki hodisaga nisbiy bogʻlikdiginini tushunamiz. Maʼno soʻzning umumiy voqelikni ifoda etishidir. Soʻzda tushuncha ifodalanadi va shu bilan birga soʻz nimadir ataydi, belgilaydi. Biz soʻz bilan ifodalaydigan hodisa, narsa yoki predmet bizning ongimizdagi tushunchaning aksidir. Shu sababdan soʻzning tuzilishi murakkabdir. U har xil ifodalash, belgilashning hamda tushuncha va maʼnoning murakkab aloqasidir. Ingliz tili leksikasini oʻrgatishda shularga ahamiyat berish zarur.

2.3. Ingliz tili leksikasining lingvistik xususiyatlari

Ingliz tili leksikasining lingvistik xususiyatlari uni oʻrganishda, oʻrgatishga taʼsir qiladi. Oʻqituvchi bu xususiyatlardan ijobiy, unumli foydalansa maqsadga erishishi osonlashadi.

Ingliz tili leksikasining lingvistik xususiyatlarini 3 guruhga boʻlish mumkin:

1. Ingliz tili leksikasini aloqida oʻzini olgandagi lingvistik xususiyatlari;
2. Oʻquvchi yoki talaba ingliz tili leksikasini ona tili leksikasi bilan taqqoslagandan kelib chiqadigan lingvistik xususiyatlar;
3. Oʻquvchi va talabaning ingliz va rus tili, ona tili leksikalari bilan taqqoslagandan kelib chiqadigan lingvistik xususiyatlar. 1-guruhga quyidagilar kiradi:

- 1) so'zlardagi ba'zi harflarning o'qilmasligi. Masalan: lake, gale.
- 2) so'zlarning ko'p ma'noli bo'lishligi. Masalan: a floor-qavat, zamin, pol;
- 3) konversiyaning mavjudligi;
- 4) ba'zi so'zlardagi harflarning qoida bo'yicha o'qilmasligi:
- 5) ingliz so'zlardagi ba'zi harf, birikmalarning qiyin talaffuz qilinishi,
- 6) fe'llarning 4 xil shaklga ega bo'lishi

2-guruh leksikasining ham o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

So'zlarning ikki tilda ma'nolari to'g'ri kelishi, ikki tilda asosiy ma'nolari to'g'ri kelmay, qo'shimcha ma'nolari to'g'ri kelishi, ikki tilda asosiy va qo'shimcha ma'nolari to'g'ri kelishi mumkin. Ingliz tili leksikasini o'zbek tili leksikasi bilan taqqoslaganda quyidagi xususiyatlar kelib chiqadi.

1. Ikki tilda so'zning ma'nosi bir-biriga to'g'ri kelmasligi: ma'noning bir tilda torligi, ikkinchi tilda esa kengligi. Masalan: afternoon - soat 12 dan 18 gacha bo'lgan davr. Bu yerda ma'no ingliz tilida keng bir so'z bilan uni o'zbek tilida ifodalash qiyin.

2. Ona tilidagi bitta so'zga (ma'noga) ingliz tilidagi ma'noning qisman to'g'ri kelishi.

Masalan: chupon - a robe, do'ppi-sculldcap. O'zbekcha do'ppi, chupon inglizcha kiyimlarga qisman to'g'ri keladi, ma'no qisman yaqin, lekin bunday kiyimlar inglizlarda yo'q. Shuning uchun a robe - o'zbeklarning chuponiga o'xshash ingliz erkaklarning uyida kiyadigan kiyimi deb izoh berilgani ma'qul.

3. Ingliz tilida ona tilidagi so'zning ma'nosiga 2 ta so'z to'g'ri keladi. Masalan: ko'p – much, many

4. O'zbek tilida uchramaydigan so'zlar. Bularni o'zbekcha bitta so'z bilan berish juda qiyin: doubledecker.

5. Inglizcha so'zning talaffuzi o'zbekcha so'zning talaffuziga to'g'ri keladi. Masalan: a magazine. Bu yerda o'quvchi, talabalar bu inglizcha so'zni

eshitiboq; o'zbekcha "magazin" deb tushunadilar, lekin u oynoma deb tarjima qilinadi.

3 guruh leksikasining ham o'ziga xos xususiyatlari bor:

1. Uchchala tilda bir xil ma'no, mazmunga to'g'ri keladigan baynalminal so'zlarning mavjudligi: Masalan, volleyball, tennis;

2. Ingliz va rus tillarida so'zlarning ma'nolari to'g'ri keladi, o'zbek tilida esa ularni bitta so'z bilan beriladi: hand - lokot-tirsak, kist-kaft, arm - ot kisti do plechi - kaftdan -elkagacha - qo'l

3. Ingliz va rus tillarida predloglarning mavjudligi, o'zbek tilida esa yo'q bo'lib, ular o'zbek tiliga kelishik qo'shimchalari va yordamchi so'zlar orqali berilishi: ustida - on -ga - to uchun - for -da,-dan – from

O'qituvchi ingliz tili leksikasini o'rgatayotganda ularning yuqoridagi 3 guruh xususiyatlarni anglab, hisobga olib o'rgatishni ishlab chiqishi ma'qul.

Ingliz tili leksikasini o'rgatishda o'quvchi, talabalarning (o'zbek, rus, ingliz) tillardan bo'lgan til tajribalarini hisobga olish zarur.

Dastlab o'quvchi, talaba o'zbekcha so'zlarni talaffuz qilishni, yozishni, o'qishni, ular orqali tinglab tushunishni, gapirishni o'rganadi. Buning natijasida o'quvchi, talabada o'z fikrini o'zbekcha og'zaki-yozma bayon qilish malaka-konikmalar, tajribalari ortadi, ularga o'xshash tovushlarni, so'zlarni talaffuz qilish, o'qish, yozish, nutqda qo'llash, til tajribasi, malaka konikmalari hosil bo'ladi.

O'quvchi, talaba ana shu malakani, konikmani, tajribani ko'r-ko'rona ingliz tilini o'rganayotganda unga ko'chirishi mumkin. Bu deganimiz inglizcha so'zlardagi tovushlarni ona tilidagidek tanglayga tegizmay talaffuz qilishi, vaholanki, ingliz tilida tanglayda talaffuz qilishadi. Natijada so'zning talaffuzi, o'qilishi o'zbekcha bo'lib chiqadi.

O'quvchi, talabaning o'zbek tili leksikasi bo'yicha til tajribasi ingliz tili leksikasining talaffuzini, o'qilishini, yozilishini o'rgatishda ta'sir qiladi. Bu ta'sir ijobiy va salbiy bo'ladi. Ijobiy ta'sir bo'lganda o'rganishga yordam beradi. Salbiy

ta'sir qilganda interferensiya keltirib chiqaradi, o'rganishga xalaqit beradi, chalkashtiradi.

O'quvchi, talabaning ona tili tajribasi ingliz tili leksikasini o'rganayotganda quyidagi holatlarda ijobiy ta'sir qiladi:

A) o'quvchi, talaba so'zni qo'llab fikr bayon qilayotganda ba'zi gap tuzilishini xuddi ona tilidagidek tuzadi, chunki inglizcha gapdagi so'zlar o'rni o'zbek tiliga to'g'ri keladi. Masalan: Bu kitob – This is a book.

B) so'z qo'shimchasi qo'shilib yangi so'z yasalishi to'g'ri keladi:
work- worker - ish - ishchi.

V) 2 ta so'z qo'shishi orqali yangi so'z yasalishini to'g'ri kelishi: - sinf xonasi
- classroom

O'quvchi, talabaning ona tilisi quyidagi holatlarda salbiy ta'sir qilishi mumkin:

a) qo'shimchasiz, konversiya orqali so'z yasaganda. Masalan: an eye, to eye - ko'z - ko'rmoq

O'zbek tilida bo'lmagan bu konversiya intefrensiya keltirib chiqaradi.

b) o'quvchi, talaba so'zni qo'llab o'z fikrini bayon qilishda xuddi ona tilidek tuzadi, vaqolanki, umuman olganda o'zbek tilida gap tuzilishi ingliz tiliga to'g'ri kelmaydi. Masalan: "Mening akam maktabda ishlaydi" gapini "My brother at school works" deydi, ya'ni gapni o'zbek tili tajribasi ta'sirida inglizcha gapda so'zlarni o'zbek tili gapidagi tartibidek joylashtiradilar.

v) o'quvchi, talabalar inglizcha matnni o'qiyotganlarida ham konversiya leksik interferensiya keltirib chiqaradi. Masalan: His works are very interesting. He works very well.

Ikkala gapda ham work so'zini ishlash deb tushunadilar.

g) so'zlarda harflarning o'qilmasligi: lake, tongue

d) so'zning matnda ko'p ma'noda kelishi: to work, work, works ham interferensiya keltirib chiqaradi.

e) o'zbek tili ta'sirida quyidagilar ham interferensiya keltirib chiqaradi; ma'nolarning bir-biriga to'g'ri kelmasligi: a robe (xalat) – chupon;

f) o'zbek tilidagi so'zni ingliz tilida ko'p so'z orqali ifodalanishi: ko'rmoq – to see, to eye.

j) Bitta ma'noni ikkita so'z bilan ingliz tilida ifodalanishi: qo'l - arm, hand

O'qituvchilar o'zlari ham buni hisobga olib leksikani o'rgatishlari, kelib chiqadigan leksik interferensiyani topishlari, oldini olish yo'llarini izlashlari, o'quvchilarga oldindan, aytib qo'yishlari lozim. Til tajribalari mustahkam bilim va malaka ko'nikma hosil qilishda muhim o'rin tutadi. Bu tajribalarning ta'sirini hisobga olmasdan, hatlab o'tish, tashlab ketish mumkin emas.

2.4. Ingliz tili leksikasini o'rgatishni metodik tashkil qilish

Leksikani o'rgatishda biz oldin metodik tashkil qilishimiz kerak. Leksikani o'rgatishni metodik tashkil qilish uni qanday nutq faoliyatining turida faollashtirish maqsadiga bo'liqdir. Leksikani o'rgatishni metodik tashkil qilish deganda, biz nutq faoliyatining leksik tomonini o'rgatish, leksik malakalarni shakllantirish, o'rgatish, avtomatlashtirishni ko'zda tutamiz.

Leksikani o'rgatishni metodik tashkil qilish nimalarni o'z ichiga olishini quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin:

- Leksikani o'rgatishni metodik tashkil qilish
- Tanlash
- Leksika ustida ishlash
- Taqsimlash
- Metodik tipologiya qilish
- Kiritish (tushuntirish, tanishtirish, o'rgatish)
- Mustahkamlash
- O'zlashtirish
- Shakli, Ma'nosi, qo'llanilishi

Tinglab tushunishni, gapirishni, o'qishni, fikrni yozma bayon qilishning leksik tomonlarini o'rgatish, ko'nikma hosil qilish bir-biridan farq qiladi, ular

alohida xususiyatga ega. Nutq faoliyatining leksik tomonini o'rgatish, nutq faoliyatining turiga qarab ishlab chiqiladi. Shu sababdan leksikani o'rgatishni metodik tashkil qilishdagi ishlar nutq faoliyatini turiga qarab turlicha bo'ladi. Lekin hammasida ham tashkiliy jihatdan metodik tashkil qilish, tanlash, taqsimlash, metodik tipologiya qilish, lek-sika ustida ishlashdan iborat bo'ladi. Faqatgina tan-lash, tipologiya qilish, taqsimlash, ustida ishlash shakllari, turlari, ishlash sifati, mazmuni o'zgaradi. Metodik tashkil qilishda qiyinchiliklar mavjud, biz ularni hisobga olishimiz kerak, ular: 1) leksikani o'rgatishga ajratilgan vaqt bo'yicha; 2) o'quvchi, talabalarning yoshi bo'yicha; 3) o'qitish maqsadi bo'yicha; 4) o'qitish bosqichi bo'yicha; 5) o'qituvchining malaka-ko'nikmasi bo'yicha; 6) so'zning mavhum yoki aniq ma'no anglatishi bo'yicha qiyinchiliklardan iborat.

So'zlarni o'zlashtirishda uchraydigan qiyinchiliklar:

- a) har bir so'zning o'zida (shakli, ma'nosi, qo'llanilishi bo'yicha)
- b) ingliz tili, ona tili va rus tillari aloqasidan kelib chiqishi mumkin.

Leksikaning metodik tipologiyasini yaratish hozirgi zamon metodikasining aktual vazifasidir.

Aktiv hamda passiv leksikada uchraydigan qiyinchiliklarning eng muhim tiplarini jamlab quyidagilarni ta'kidlash mumkin.

Aktiv lug'atda so'zning ham mustaqil, ham yordamchi so'z vazifasida qo'llanishi, so'zni erkin va erkin bo'lmagan holda qo'llanishi, so'zlarning talaffuzi, ma'nosi jihatdan (sinonimlar) o'xshashligi;

Grammatik shakllar yasash usullarining ingliz va o'zbek tillariga mos kelmasligi, ikki tilda so'zlarning ma'no jihatdan mos kelib, ammo shaklan bir-biridan farq qilishi, ikki tildagi so'zlarning ma'no hajmi va birikish qobiliyatini mos kelmasligi xususiyatlari uchraydi.

Passiv lug'atda esa so'zlarning bir bo'g'iniligi, ko'p ma'nolilik va bir so'zning o'zini asosiy va yordamchi, to'g'ri va ko'chma ma'noda qo'llanilishi, ingliz tili so'zlarining talaffuz jihatdan o'xshashligi, ingliz tili so'zlarning ona tilidagi

so'zlarga, ma'no jiha-dan farq qilsa ham shaklan o'xshashligi metodik tipologiyada hisobga olinadi.

O'qituvchi o'quvchi, talabalarga leksikani o'rgatish, o'zlashtirishdan oldin kelib chiqadigan qiyinchiliklarni (ayrim olgan holda va o'zbek tili bilan taqqoslanganda) aniqlab ularni tiplashtirishi mumkin. Keyin har bir tip uchun metod, usul, yo'llarni, mashqlarni mosini tanlab o'rgatiladi. Natijada har bir so'zning xususiyati hisobga olinadi, o'rgatishga kam vaqt ketadi. Bunda har bir so'z uchun alohida-alohida usul, yo'l, mashq ishlatilmay, har bir tip uchun ishlatiladi.

Ingliz tili leksikasi alohida olinib, o'zbek tili leksikasi bilan taqqoslanib, ma'nosi, shakli qo'llanilishi bo'yicha metodik tipologiya qilinadi.

Masalan: *a map, a pen, a pencil, a table, to see, to like, to want* ni olsak; *a map, a pen, a pencil, a table* so'zlarini o'rgatishdagi qiyinchiliklari shundaki, ularni o'quvchi o'z ko'zi bilan yoki rasm orqali ko'rsa yaxshi qabul qiladi, *to see, to like, to want* larga esa rasm ko'rsatish qiyinroq, bu yerda harakat orqali ko'rsatish maqsadga muvofiqsir. Shu sababdan bu 8 ta so'zni 2 tipga ajratib ma'nosini ochishga 2 ta usulni:

- 1) rasmlar yoki predmetning o'zini va
- 2) harakatni ko'rsatish usullaridan foydalanamiz.

Hozir leksikani metodik tipologiya qilganda 2 ta yo'nalish bor:

1-yo'nalish: a) so'zning shakliga

b) ma'nosiga qarash

Ingliz va ona tili so'zlari taqqoslanadi. Bu yo'nalishda G. Palmer, X. R. Xyuz, R. Lado, S. Porakova, N. V. Nikolaev, M. S. Latushkina, S. V. Kalininalar ish qilganlar.

2-yo'nalish: so'zlarni og'zaki nutqda ishlatilishi bo'yicha qiyinchiliklarni hisobga olish. Bu yerda so'zlarni birikish qobiliyati, nutqdagi vazifasi ko'zda tutiladi. Bu yo'nalishda Charlz Friz, Moris, Yakushinalar ish qilishgan.

Keyingi paytda leksikaning qiyinchiliklarini tipologiya qilish professor Berman-ning 3 ta asosiy:

- a) rus va chet tillarida leksik birliklarning shakli va ma'nosi bo'yicha;
- b) o'rganiladigan chet tili leksikasini o'zining xususiyati bo'yicha;
- v) boshqa tilda gaplashuvchilarni chet tili nutqini tinglab qabul qilish va talaffuz qilish bo'yicha yo'nalishlarida bo'lyapti.

Leksika ustida ishlash

Leksika ustida ishlash asosan 3 bosqichga bo'linadi:

- 1) so'zni tanishtirish, tushuntirish;
- 2) so'zni o'zlashtirish;
- 3) so'zni mustahkamlash.

So'zni tanishtirish alohida ajratib olinib yoki kontekstda bo'lishi mumkin. So'zni qanday nutq faoliyati orqali tanishtirish o'rgatilayotgan sinfga, o'quv yurtida o'qitish bosqichiga bog'liqsir. Yangi so'z bilan tanishtirish:

- 1) matnni o'qishdan oldin (5-6-sinflarda);
- 2) matnni o'qiyotganda
- 3) mustaqil lug'atdan foydalanish orqali bo'lishi mumkin (7, 8, 9-sinflarda).

So'zni tushuntirishda, taqsim qilishda hammamizga ma'lum bo'lgan shakli, ma'nosi (semantikasi), qo'llanishi vazifasi (funktsiyasi) bilan tanishtiramiz. G. V. Rogovaning fikricha so'zni o'rganish jarayoni:

- 1) nimani ifodalayotganini;
- 2) so'zni esda saqlab qolishni;
- 3) so'zni turli nutq vaziyatlarida, turli nutq faoliyati turlarida qo'llay olish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi.

So'zni taqsim qilish fonetik - talaffuz qilish, yozuv, grammatik shaklini taqsim qilishdan, ma'nosini, qo'llanilishini tushuntirishdan iboratdir. S. F. Shatilov leksikani o'rgatish deganda leksik ko'nikmani hosil qilishni tushunadi. Uning fikricha, leksik ko'nikmalar hosil qilish 3 bosqichga bo'linadi:

- 1-bosqich. Kiritish, yangi so'zning ma'nosini ochish va qayta talaffuz qilish;
- 2-bosqich. Nutq vaziyatlarida qo'llashni mashq qilish va mustahkamlash;
- 3-bosqich. O'zgaruvchan-vaziyatli (situativ) bosqich.

1. Soʻzning shaklini oʻrgatish. Soʻzning shakli, deganda uning koʻrinishi, yozilishi, oʻqilishi, talaffuz qilinishi tushuniladi. Yangi soʻzning oʻqilishi, yozilishini quyidagicha oʻrgatiladi:

1) agarda soʻzdagi harf birikmasining oʻqilish qoidasi tanish boʻlsa, notanish yangi soʻzlarni oʻquvchi, talabalarning oʻziga oʻqitish orqali;

2) taqlid qilib oʻqitish yoki talaffuz qildirish;

3) agarda notanish yangi soʻzda oʻrganilmagan harf, harf birikmasi boʻlsa, uni oʻrgatib, soʻng soʻzni oʻquvchi, talabalarning oʻziga oʻqitish orqali;

4) oʻxshashligi boʻyicha oʻqitish;

5) qisman oʻqilish belgilarini berish orqali;

6) oʻqituvchining doskadagi yozuviga oʻxshatib yozdirish orqali oʻrgatiladi.

Bunda asosan, oldin oʻquvchi oʻqiydi yoki talaffuz qiladi, joʻr boʻlib (5-6-sinflarda), soʻng oʻqimagan, talaffuz qilmaganlarga yakka oʻqitiladi, talaffuz qildiriladi. Oʻqitiladigan yangi soʻzlarni kartochkaga rangli yozib koʻrsatish, oʻqitish oʻquvchida katta qiziqish uyqotadi.

2 - soʻzning maʼnosini (mazmunini) ochish asosan, 2 xil metod;

A. Tarjima metodi yoki 2 ta til orqali;

B. Tarjimasiz metod yoki 1 ta til orqali amalga oshadi.

A. Tarjima metodi 3 usulga ega: 1 usul: inglizcha soʻzning maʼnosiga toʻgʻri keladigan, mos keladigan ekvivalenti boʻlsa, toʻgʻridan-toʻgʻri ona tilida ogʻzaki berish yoki doskada soʻzning toʻgʻrisiga tarjimini yozib qoʻyish. Masalan: to sleep – uxlamok; a flower – gul;

2-usul; soʻzning 2 ta maʼnosini berish; masalan: a floor - pol, qavat.

3-usul; tarjima - izoh, tarjima - izohlash (talqin qilish). Inglizcha soʻzning maʼnosi ona tilidagi maʼnodan tor yoki keng boʻlsa, toʻliq maʼno boʻlmasa ona tilida izoh beriladi. Masalan: afternoon - soat 12dan 18 gacha boʻlgan vaqt.

Bu metod zarurat tugʻilganda, sinfda oʻquvchi koʻp boʻlganda, soʻzning maʼnosini tarjimasiz ochish mumkin boʻlmaganda, maʼnosi ochiladigan soʻz koʻp boʻlib, kam vaqt boʻlganda qoʻllaniladi.

B. Tarjimasiz metod; Bunda til, nutq ko'rgazmasi, ya'ni ingliz tilining ko'rgazmaliligidan keng foydalaniladi. Bu metodni qo'llash so'zning ma'nosini ingliz tilini o'zining vositalari orqali ochishdir. Biz bunda inglizcha kontekstdan, nutq vaziyatidan, so'z yasovchi qo'shimchalardan so'zni kelib chiqishini taqlil qilishda, qo'shimchalardan, sinonim, antonimlardan foydalanib, o'quvchi, talabalarning o'zlariga so'zning ma'nosini fahmlab toptirishdan, baynalminal so'zlarni taniy olishliklaridan keng foydalanamiz. O'qituvchi tarjimasiz metodni ishlatishdan oldin, albatta o'quvchi, talabalarga tinglang, o'qing, fahmlab so'zning ma'nosini toping, tushuning kabi topshiriqlar berish orqali diqqatini tortadi.

Kontekst, matndagi so'zlar (yangi so'zdan tashqari) o'quvchi, talabalarga tanish bo'lishi shart. Bu metodning ham bir necha usullari mavjud:

1) so'zning ma'nosini ochish predmetni yoki rasmni, harakatni ko'rsatish orqali bo'ladi. Masalan, o'qituvchi qalamni ko'rsatib, *a pencil, it is a pencil, , I see a pencil, you see a pencil* jumalari orqali aytib qaytaradi. Bunda o'qituvchi mumkin qadar o'quvchi bilgan, o'rgangan so'z va jumalarni ko'proq ishlatgani ma'qulroqdir.

Tarjimasiz metodni ko'proq qo'llaganimiz maqsadga muvofiqdir. Biz bu metodni sinfda kam o'quvchi bo'lganda, ma'nosi ochiladigan so'z kam bo'lganda, vaqt ziq bo'lmasa qo'llaymiz.

Bu metod o'qituvchidan ko'p tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi. Yangi so'zning ma'nosini ochishda qaysi metodni qo'llashi so'zning xususiyatiga, vaqtga bog'liq-dir. Ikkala metodning ham o'ziga yarasha afzallik va kamchiliklari bor.

Tarjima metod orqali leksikaning ma'nosini ochishning afzalliklari shuki:

- 1) kam vaqt sarflanadi;
- 2) o'quvchilarda nutq malakalarini rivojlantirishga ko'p vaqt qoladi.

Kamchiligi esa:

1) o'quvchilarni mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam bermaydi.

2) ba'zi so'zlarning to'liq ma'nosini tarjima orqali berish mumkin emas, chunki ingliz tilidagi so'zning ma'nosi o'zbek tilidagi ma'noga qaraganda kengroq yoki torroq ma'noga ega bo'ladi.

3) o'quvchi inglizcha nutq oqimida kam bo'ladi.

Tarjimasiz metod orqali leksikaning ma'nosini ochganda uning afzalliklari shuki: 1) o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, o'ylashga o'rgatiladi;

2) o'quvchilar doim ingliz tili muhiti (atmosferasini)ni sezib turadilar. Bu inglizcha gapirishga raqbatlantiradi;

3) ingliz tilidagi so'zning ma'nosini to'liq yoritish mumkin

4) leksika bilan birga o'quvchilar gap tuzilishni, modellarni o'rganadilar;

5) turli xil ko'rgazmalarni qo'llash ingliz tili darsiga o'quvchilarni qiziqtiradi, rag'batlantiradi:

6) bu usul orqali leksikaning ma'nosini ochganda o'quvchilar predmetlarni, narsalarni ko'rib, sezib, ongli tushunadilar;

7) o'qituvchi o'zining inglizcha nutqini yodidan chiqarmay, rivojlantirib boradi;

8) ma'noni ochish jarayonida leksikani qo'llanilishini o'quvchilar ko'radilar, o'qiydilar, o'zlashtiradilar.

Kamchiligi esa 1) ko'p vaqt ketadi;

2) o'qituvchi o'zi ustida ko'p ishlashi kerak.

2.5. Leksikani o'rgatishda so'zlar lug'ati

Kishi o'zi qo'llaydigan so'zlarga qaraganda to'rt marta ko'p miqdordagi so'zlarni biladi. Katta yoshdagi ilmiy kishilar ona tillarida 6000 dan 10 000 gacha so'z biladilar. Kundalik hayotda, suhbatlarda, xabarlarda kishilar qo'llaydigan leksika yevropa tillarida 1500 dan 2500 gacha bo'lgan so'z boyligini tashkil qiladi. Bundan xulosa qilib aytish mumkinki, kishilar o'z ona tillarida ham chegaralangan miqdordagi leksikadan foydalanadilar.

Til o'rganishga sarflanadigan vaqt qat'iy chegaralangan. O'rta maktab sharoitida esa o'quvchilar o'zlashtirib olishlari zarur bo'lgan leksika anlab olinishi

kerak. Tanlab olingan leksika birliklarni o'qubvhilar birinchi navbatda o'zlashtirib olishlari lozim. Bu so'z boyligi metodikada leksik minimum deb yuritiladi. Leksik minimum tanlash uzoq tarixga ega.

Bu sohada birinchi XVII asrpedagogi Ya.A.Kamenskiy ish olib bordi. U lotin tilini o'rgatish uchun 8000 leksik birlik tanlanadi. Leksik bu minimumning hajmi juda katta bo'lib, uning tarkibiga xatto ona tilida ishlatish zarurati bo'lmagan maxsus atamalar ham kiritilgan edi.

XIX asr metodistlari ham leksik minimum tanlash masalalariga o'z hissalarini qo'shadilar. Masalan, nemis olimi Karl Mager leksik minimum tanlashda quyidagi prinsiplarga aslanadi:

- a) Avval asl ma'nodagi so'zlar, so'ng ko'ch ma'nodagi so'zlar;
- b) Avval tub so'zlar, so'zngra yasama so'zlar;
- c) Avval konkret so'zlar, so'ngra abstrak so'zlar.

Tanlash jarayonida yuqoridagi prinsiplarga asoslanish sun'iylikka olib keldi. Chunki shunday yasama va abstrakt so'zlar borki, ular tub va konkret so'zlarga nisbatan ko'p qo'llaniladi.

XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib xorij tili ta'limiga sarflanadigan vaqtning maksimal qisqartirilishi va o'quvchilarga eng zarur bo'lgan bilim va malakalarni berish zarur degan fikrni olg'a surish munosabati bilan bir qator lug'at minimimlari tuzildi. Bu lug'at minimumlari tuzishda so'zning kontekstda ko'p uchrashi (chastotnost) asosiy prinsip qilib olindi. Kening, Torpdayk, Morgan kabi metodistlar turli stillarga mansub matnlarni tanlab olib ulardagi so'zlarni hisoblab chiqadilar va eng ko'p qo'llanilgan so'zlarni lug'at minimumga kiritadilar.

Ingliz metodisti Gerald Palmer esa quyidagi prinsiplarga asoslanib lug'at tuzdi:

1. So'zlar birinchi ma'nosiga ko'ra lug'atga kiritiladi.
2. Ko'p so'z yasash qobilyatiga ega bo'lgan o'zak so'zlar tanlab olinadi.
3. Boshqa so'zlar bilan munosabatga oson kirishadigan so'zlar.
4. Ko'p uchraydigan so'zlar.

Ko'rinib turibdiki, Palmer lug'atida yuqoridagi metodistlar asoslangan prinsip oxirgi o'rindan joy olgan.

Lug'at minimum tuzishda metodist Ogdenning tutgan yo'li ham qiziqarli. U turli tushunchalarni anglatadigan 850 ta ingliz so'zini tanlaydi, masalan, o'simlik, hayvonlar, narsalar nomlari. Lug'at minimumga boshqa so'zlar yordamida ifodalash mumkin bo'lgan barcha atamalar kiritilmagan. Ushbu lug'at mustamlaka xalqlar uchun mo'ljallangan. Ogdanning fikricha mustamlaka xalqlar ingliz tilida erkin gapirishlari shart emas, ular inglizlarni xizmat doirasida tushunchalar va o'z fikrlarini tushuntira olsalar kifoya. Bunday muomalani Ogden fikricha 850 leksik minimum ta'minlaydi.

Leksik minimum tanlash masalalari bilan professor K.A.Canshina va I.A.Gruzinskayalar shug'ullanadilar. 1948 yilda professor I.V.Rahmonov rahbarligida ishlagan pedagogika fanlar Akademiyasiga qarashli ta'lim metodlari instituti xodimlari tomonidan ilmiy asoslangan lug'at minimum yaratildi. Lug'at minimum o'rta maktablar uchun mo'ljallangan bo'lib ingliz, fransuz va nemis tillarida tuzildi. Avvalgi mavjud bo'lgan lug'at – minimumlardan farqli ushbu minimumda so'zlar aktiv reproduktiv va passiv retseptiv minimumlarga ajratiladi. Lug'atga 4500 ma'noga ega bo'lgan 3000 so'z kiritildi. Lug'at mualliflarining fikricha ushbu so'zlar o'rtacha qiyinchilikdagi orginal adabiyotni o'qish uchun kifoya. Ushbu ro'yxatdan 1000 ta so'zni (taxminan 1400 ma'no) o'quvchilar reproduktiv yo'l bilan o'zlashtirib olishlari lozim, ya'ni o'quvchilar ushbu so'zlar yordamida o'z fikrlarini bayon qila olsinlar. 1955 yilda ikkinchi lug'at minimum tuzildi. Lug'at mualliflari I.D.Salitra va I.I.Bogdanova aktiv qo'llanishga oid so'zlarni to'pladilar. Ular birinchi chop etilgan lug'atni taxminan 40% qisqartidilar. Tanlash asosiga so'zlarning ijobiy va salbiy ma'nosini anglash mezoni qo'yildi va lug'atga ijobiy ma'noli so'zlar kiritildi. 600 so'z aktiv qo'llanish uchun mo'jallangan.

2.6. Leksik materialni nutqda qo'llanish prinsiplari

Ushbu prinsip so'zlarning matndagi qo'llanish soniga asoslanadi. Shunga ko'ra leksik minimumga o'rta maktablar uchun mo'ljallangan matnlarda ko'p uchraydigan so'zlar kiritiladi.

O'rta maktablar uchun tanlangan leksik minimum uch guruhga bo'linadi:

- a) Aktiv minimum (reproduktiv minimum);
- b) Passiv minimum (retseptiv minimum);
- c) Potentsial minimum.

Aktiv minimumga o'quvchi o'z fikrini og'zaki yoki yozma ravishda bayon qilishda qo'llaydigan so'z boyligi kiritiladi. Ushbu leksik boylikni o'quvchilar reproduktiv ravishda o'zlashtirib olishlari lozim. Ya'ni o'quvchilar ushbu so'zlarni

- a) ifodali o'qiy olishi;
- b) to'g'ri talaffuz qila olishi;
- d) ma'nosini darhol tushuna olishi;
- e) boshqa so'zlar bilan biriktira olishi talab qilinadi.

Faqat shundagina o'quvchi ushbu so'zni o'zlashtirib oldi deb hisoblash mumkin. Aktiv minimum o'quvchilar so'z boyligining asosini tashkil qiladi.

Passiv minimum deganda og'zaki yozma axborotni qabul qilish uchn xizmat qiladigan so'z boyligi tushuniladi. Bu so'z boyligi o'quvchilarning aktiv so'z boyligini to'ldiradi va retseptiv yo'l bilan o'zlashtirib olinadi. Aktiv va passiv minimum o'rtasidagi chegara toraygan emas. Kishining aktiv minimumga kiruvchi so'zlar gapirish va yozish jarayonlarida qo'llanilmasligi passiv nutq yordamida aylanishi yoki aksincha passiv minimumdagi so'z boyligi mashq yordamida aktiv minimum qatoriga qo'llanilishi mumkin. Amalda birinchi holat sodir bo'ladi, ya'ni aktiv leksik minimum passiv minimumga tezroq aylanadi.

Ona tilidagi aktiv va passiv so'z boyligining hajmi va tarkibi ma'lumoti, madaniy darajasi, kasbi, qiziqish doirasiga bog'liq. Xorijiy tilda esa minimumlar hajmi tilni o'rganishdan ko'zlangan maqsad va tilni egallash darajasiga bog'liq. Masalan, o'rta maktab, xorijiy tilni chuqur o'rganadigan siflar, xorijiy til

mutaxassisi bo'lmagan o'quv yurtari, xorijiy til mutaxassislik sifatida o'rganiladigan oliy o'quv yurtlarida va boshqa o'quv yurtlarida leksik minimumning hajmi va tarkibi turlishadir. Takomillashtirilgan programma talabiga ko'ra o'rta maktab o'quvchilari 850 leksik birlikni reproduktiv, 1000 leksik birlikni esa retseptiv ravishda o'zlashtirib olishlari lozim.

Hozirgi kunda o'rta maktab xorij tili dasturlarida nutq faoliyatining og'zaki va o'qish turlari uchun mo'ljallangan lug'at minimum soni turlicha bo'lishligi lozimligi ta'kidlanadi. I.V.Raxmanov og'zaki nutq uchun 800-1000, o'qish uchun esa 2000-3000 leksik birlikni tavsiya qiladi¹¹.

Metodik adabiyotda aktiv va passiv minimumdan tashqari potentsial minimum deganda o'quvchi hali o'z tajribasida uchratmagan, lekin tanlash yoki o'qish jarayonida taniy oladiga so'zlar tushuniladi. Bunday so'zlarga birinchi navbatda ona tilida va rus tilida o'zagi bir xil bo'lgan xorijiy tildagi so'zlar kiradi. Masalan, atom, fakultet, dekan, literatura va boshqalar. Bunday so'zlar tilda taxminan 25% ni tashkil qiladi. O'rta maktab uchun potentsial minimum tanlanmaydi balki o'quvchilarda bunday so'zlarni tushunishga asos tayyorlanadi. Har bir o'quvchining potentsial minimum bir-biridan farq qiladi. Potentsial minimumni hajmi o'quvchini tilni bilish darajasi topqirligi dunyo qarashga bog'liq.

Xorijiy til o'qitish metodikasida leksik minimum tanlash birligi masalasi ham muammolidir. Tanlash birligi haqida turlicha fikrlarning mavjudligi fikrimizga dalil bo'la oladi. Ingliz metodisti Torndayk tanlash birligi qilib grafik so'zni, G.Palmer "Ergon"ni (ma'noga ega bo'lgan so'z va so'z birikmalari), I.D.Salitra o'quv leksik birlikni, 1947 yilda nash etilgan lug'at minimum mualliflari so'z tushunchani olganlar¹². Umumiy metodika mualliflarining fikriga ko'ra tanlash birligi sifatida so'z ma'noni olish maqsadga muvofiqdir. Bu nazariy jihatdan qulaylik tug'diradi.

Tanlab olingan lug'at minimumni o'quvchilar tomonidan bir xilda o'zlashtirib

¹¹ Rogova G.B. Metodika, obucheniya angliyskomu yazyiku. "Prosveshenie" 1997

bo'lmaydi. Bir so'zni o'quvchi oson, ikkinchisi esa qiyin eslab qoladi. U so'zning talaffuzi o'quvchida qiyinchilik tug'diradi, ikkinchisini esa o'quvchi o'zi talaffuz qiladi. Shuning uchun ham so'zlarni metodik jihatdan turlarga va guruhlarga ajratish ta'lim jarayoni uchun katta ahamiyatga ega. Avvalo tipologiyalash va guruhlash tushunchalarini fikrlash zarur. Guruhlash deganda so'zlarni biror belgisiga ko'ra (tematik, tuzilish va boshqalar) birlashtirish tushuniladi. Tipologiya esa so'zlarni o'zlashtirishda paydo bo'ladigan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

1. Ayrim so'zlarga xos bo'lgan qiyinchiliklar.

So'zning uzun yoki qisqaligi, konkret yoki abstract so'zlar.

2. Xorijiy til va ona tili o'rtasidagi fikrlar, ma'no va qo'llanishning mos kelmasligi.

3. Xorijiy til so'zlari o'rtasidagi fikrlar:

Til ko'rgazmaliligi orqali so'zlarning ma'nosi xorijiy tilda ochiladi. Bu o'rinda kontekst, leksik birliklarni so'z yasashga va etimologiyaga oid tahlil, ta'rif, qiyoslash, internatsional o'zaklarga tayanish kabi usullardan foydalaniladi.

Nutq ko'rgazmaliligi esa so'z ma'nosini ma'lum situatsiya va kontekst yodamida ochishdan iboratdir.

Izohlash deganda xorij tili so'zi ifodalayotgan tushunchani xorijiy til yoki ona tilida qisqacha sharhlash nazarda tutiladi. Bu usul odatda xorijiy tilidasi so'z ma'nosi ona tilidagi so'z ma'nosidan farq qilganda yoki tillardan mavjud bo'lmaganda qo'llaniladi. Realialarning ma'nosini ochishda bu usul yaxshi samara beradi.

Tarjima – bu ma'noni boshqa til vositalari bilan qayta ifodalashdir. Bu usul eng aniq, tejamkor hisoblanadi.

Xorij tili va ona tili so'zlari ma'nosining bir-biriga mos kelishi yoki kelmasligiga ko'ra lingvistik adabiyotlarda so'zlar to'rt guruhga bo'linadi:

- 1) Ikki tilda ham ma'nosi mos keladigan so'zlar

- 2) Asosiy ma'nosi va ayrim yordamchi ma'nolari mos keladigan so'zlar

3) Asosiy ma'nosi mos keladigan so'zlar

4) Asosiy ma'nosi mos keladigan lekin yordamchi ma'nosi mos kelmaydigan so'zlar

Ushbu ob'yektiv farq xoriy tildagi so'z ma'nosini tushunishda xalaqit berishi yoki yordam berishi mumkin. Masalan, birinchi guruhga kiruvchi so'zlar qolganlariga qaraganda osonroq o'zlashtiriladi.

So'zlarning nutqida qo'llanishini o'rgatish bevosita ushbu so'z anglatgan ma'no bilan bog'liqdir.

So'zni o'zlashtirib olish har doim retseptiv faoliyatdan boshlanib, retseptiv-reproduktiv, reproduktiv so'ngra esa so'zni mustaqil qo'llash bilan yakunlanadi.

Ma'lumki, so'z haqiqiy ma'nosini kontekstda anglatadi. Shuning uchun ham yangi so'z ma'lum kontekstda tushuntirilishi va mustahkamlanishi kerak. So'zning turli kontekstda tushuntirilishi uning ma'nosini qo'llanilishi va boshqa so'zlar bilan birikish imkoniyatlarini yaxshiroq o'zlashtirishni ta'minlaydi. So'zlarni yaxlit holda, kontekstdan tashqarida o'rgatish uning tezda esdan chiqishiga sabab bo'ladi.

Biroq ta'lim jarayonida so'zlarni kontekstdan ajratib tushuntirishning ahamiyati bor. So'z yakka holda leksik, grammatik jihatdan tahlil qilinadi. So'zning asosiy ma'nosini o'quvchi kontekstsiz o'zlashtirib oladi, kontekstda esa uning boshqa ma'nolarini o'rganadi, shuning uchun so'z bilan ham yakka holda, ham kontekstda ishlash maqsadga muvofiqdir.

Ta'limning boshlang'ich bosqichida aktiv so'z boyligi bilan ishlanadi. Aktiv so'z boyligi til o'rganish uchun asos hisoblanadi. Aktiv minimum nutq faoliyatining gapirish va yozish turlari uchun xizmat qiladi. So'zlardan gapirish jarayonida foydalana olish uchun so'zning ma'nosini tanlashni, jummalarni fonetik va grammatik jihatdan tuzishni, avtomatizm darajasiga ko'tarishni ta'minlaydigan darajada mashq qilish zarur. Chunki og'zaki muloqot so'zlarni nutqda tez qo'llay olish malakasini talab qiladi.

Yozish jarayonida esa o'quvchi to'xtash, o'ylash, eslash, tuzatish imkoniyatlariga ega.

Leksik minimumni gapirish jarayonida qo'llash o'quvchilarni xorij tili so'zini boshqa so'zlar bilan biriktirishni talab qiladi. Biroq xorijiy tildagi so'zlarning birikishi ona tilidagidan farq qiladi. Shuning uchun ham o'quvchilarga xorij tili so'zining birikish xususiyatlarini tushuntirish lozim. Masalan, "have" fe'li o'zidan keyin kelgan otning bosh kelishigida turishini talab qiladi, o'zbek tili xususiyatidan kelib chiqib 'menda kitob bor' jumlasini "I have a book" emas balki "Me have a book" deb noto'g'ri tarjima qiladi.

Aktiv leksik minimum bilan ishlash usullari passiv minimum bilan ishlash usullari bilan farq qiladi. Passiv minimum tinglab tushunish va o'qish uchun xizmat qiladi. Passiv minimumni o'zlashtirish aktiv minimumni o'zlashtirish jarayonida bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi. Tinglab tushinish va o'qish jarayonida so'zlarning ma'nolari ularning talaffuzi va orfografik shakllari bilan identifikatsualanadi. Bu jarayon muvofiqiyatli o'tishi uchun o'quvchilar xotirasida so'zlarning talaffuz va orfografik obrazlarini hosil qilish lozim.

O'quvchilarning passiv so'z boyligini orttirish va ularga so'z ma'nosini anglash qobiliyatini rivojlantirish, so'zning shakl va mazmunini lisoniy tahlil qilishni talab qiladi. Lingvistik tahlil quyidagilarni o'z ichiga oladi: so'zni ko'rish – tinglash birligi sifatida bir butun idrok qilish; so'zni tarkibiy qismlarga ajratish; ajratilgan qismlarni ma'nosini ochish; so'z qismlarini bir butunlikka birlashtirish va so'zning ma'nosini ochish. Masalan, "a worker" ot bo'lib – ishchi degan ma'noni anglatadi – er suyffiksi esa kasb otni yasaydi.

2.7. Leksik materialni o'rgatishda mashqlarning o'rni

O'quvchilar leksik material bilan tanishganlardan so'ng ular bu materialni mashqlar yordamida mustahkamlaydilar. Har bir so'z og'zaki nutq va o'qish jarayonida retseptiv va reproduktiv ravishda mashq qilinishi zarur.

Mashqlarni tuzishda quyidagilarga alohida e'tibor berish lozim: leksik birliklarni tanlash, qiyinchiliklarni metodik jihatdan tasniflash, ta'lim maqsadiga ko'ra taqsimlash, uzoq muddatli va qisqa muddatli xotira, ko'rish, eshitish va motor sezgilarining xususiyatlarini hisobga olgan holda leksikani ozlashtirish bosqichlarini belgilash.

Mashqlar quyidagi ketma-ketlikda tuziladi. So'z bilan tanishtirish, birlamchi mustahkamlash, trenirofka va so'zni nutqda mustaqil qo'llash.

Leksik mashqlarni uch guruhga bo'lish mumkin:

- 1) Retseptiv mashqlar.
- 2) Reproduktiv mashqlar.
- 3) Retseptiv-reproduktiv mashqlar.

1. RETSEPTIV MASHQLAR

A. Leksik birliklarni tinglab tushunish jarayonida idrok qilish.

1. So'zni alohida va gapda 2-3 marta tinglab va uning tovush tarkibini tanlash.
2. So'zning tovush tarkibini tahlil qilish.
3. O'qituvchi nomini atagan predmetlarni ko'rsatish.
4. O'qituvchi nomini atagan harakatlarni ko'rsatish.
5. Nomi atalgan predmetlarning sxema shaklida rasmini tuzatish.
6. So'zlarning qanday mavzuga mansubligini aniqlash.
7. Jumladagi so'zlarning sonini aniqlash.
8. Ikki jumladan qo'llanilgan sinonimlarni ma'nosini tushuntirish.
9. So'zlarni jumllarini tinglab tarjima qilish.
10. So'zlarni ma'lum belgisiga ko'ra guruhlarga bo'lish (fonetik, Grammatik so'z yasash, alifbo, tematik va boshqalar).

11. So'z manosi kontekstga qarab belgilash.

B. Leksik birliklarni o'qish jarayonida idrok qilish:

1. So'zlarning alifbo bo'yicha tarribga solish.
2. So'zlarning harf tarkibini tahlil qilish.

3. Soʻzda tushurib qoldirilgan harflarni toʻldirish.
4. Qoʻshma soʻzlarni tarkibini qismlarga ajratish.
5. Soʻzni qaysi soʻz turkumiga kirisini aniqlash.
6. Tekstdan bir hil oʻzakli soʻzlarni aniqlash.
7. Elemntlarga koʻra (affikslar) soʻz maʼnosini aniqlash.
8. Soʻzlarni maʼlum belgisiga koʻra guruhlariga ajratish (soʻz turkumlari, soʻz yasash elementlari, sinonimlar, antonimlar, oʻzak, tovushlar).
9. Maʼlum soʻzlardan koʻrsatilgan mavzuga oidini tanlay olish.
10. Gapdagi yangi soʻzlarni ostiga chizish.

II. REPRODUKTIV MASHQLAR

1. Predmetlarning nomlarini atash.
2. Maʼlum mavzuga oid soʻzlarni doskaga yozish.
3. Maʼlum soʻzlar bilan namunaga qarab gaplar tuzish.
4. Predmetning qayerda turganligi, uning rangini, shaklini, hajimini atash.
5. Rasmni berilgan tayanch iboralar yordamida tasvirlash.
6. Berilgan obʼyektни tasvirlash (xona, bino, yil, fasllar, kishining tashqi koʻrinishi va boshqalar).
7. Vaziyatni tasvirlash.
8. Berilgan mavzuga hikoyacha tuzish.
9. Berilgan tayanch iboralardan foydalanib hikoya tuzish.
10. Berilgan mavzuga insho yozish.

III. RETSEPTIV – REPRODUKTIV MASHQLAR

1. Oʻqituvchi yoki diktorga qarab alohida soʻzlarni, soʻz birikmalarini, jurnallarni takrorlash (bir oʻquvchi yoki joʻr boʻlib).
2. Berilgan oʻzak yoki affikslar asosida soʻzlar yasash.
3. Gapda qoʻllanilgan yangi soʻzning antonimini atash.
4. Soʻzlarni aytib turilganda yozib olish.
5. Maʼlum soʻz bilan birikishi mumkin boʻlgan soʻzlarni atash.

6. Gap bo'laklarini berilganlari bilan almashtirish.
7. Gaplarni kengaytirish.
8. Matndan yangi so'zlarni yozib olish.
9. Osti chizilgan so'zlarga savol qo'yish.
10. Tinglangan hikoyaga reja tuzish.

Yangi so'zni o'zlashtirish deganda so'zni yodda saqlay olish, kerakli paytda, joyda ishlata bilish, qo'llay olish tushuniladi. So'zlarni amalda doim qo'llab turish- so'zlarni yaxshi o'zlashtirishning asosidir.

So'zlarni o'zlashtirishda yodlash eng muhim ahamiyatga ega. Ko'pincha o'zlashtirishda mashqlar keng qo'llaniladi, bunda so'z ham, modellar ham o'zlashtiriladi. Bunga: 1) taniy olish; 2) qaytarish, taqlid qilish; 3) o'tilgan so'zni amalda qo'llash (stol ustidagi predmetni yoki rasmlarni ichidan talaffuz qilingan so'zni topib ko'rsatish kabi); 4) o'qituvchi savoliga o'quvchi javobi; 5) o'quvchi, talabalarni bir-biriga savol-javob qilishi; 6) berilgan so'zni gapda qo'llash kabilar kiradi.

So'zlar asosan yozuv va o'qish orqali ham o'zlashtiriladi. Buning uchun maxsus mashqlar qo'llaniladi. Bunga ma'nosiga o'xshash yangi so'zlarni yozish, sifat, ravishini topish, bo'sh qoldirilgan joylarni to'ldirish mashqlari kirishi mumkin. Ikkinchi bosqichda o'quvchilar so'zlarni yaxshi o'zlashtirishlari uchun kontekstdan keng foydalaniladi.

Bunga: 1) matn ustida savol-javob o'tkazish;

2) matnni so'zlatish;

3) rasmga qarab hikoya qildirish;

4) diafilm to'g'risida bahslashish, so'zlashish;

5) berilgan nutq vaziyati to'g'risida qisqacha ma'ruza qildirish mashqlari kiradi. Yuqoridaga mashqlarni bajarishda qo'llash kerak bo'lgan so'zlar oldindan belgilab beriladi. O'quvchi, talabalar yangi so'zni o'zlashtirayotganda eski so'zlarni ham esga tushiradilar. Mashqlar uyga vazifa qilib ham berilishi mumkin.

So'zni mustahkamlash uni shakli, ma'nosini, qo'llanilishini puxta egallash, bilishdir. U asosan takrorlash- qaytarish orqali sodir bo'ladi.

O'rta maktabda so'zlarni mustahkamlash uchun 3 ta bosqichlardan foydalaniladi.

1-bosqich: a) yangi so'zlarni tanib olib, ular orqali ko'rsatmalarni bajarish;

b) o'qituvchi predmet yoki harakatni ataydi, o'quvchilar rasmlarni mazmuni bo'yicha tanlab ko'rsatishi mumkin;

v) o'qituvchi so'zni ona tilida aytadi, o'quvchilar uni matndan topib javob beradilar;

g) o'qituvchi yangi so'z bilan savol beradi, o'quvchilar matndan topib, o'qib beradilar.

2-bosqich; Yangi leksikani namunadagi so'zlar orqali takrorlash; a) o'qituvchi doskaga namuna gapni yozadi, o'quvchilar namunadagi so'zlar o'rniga yangi so'zni qo'yadilar; b) berilgan namunalar asosida gaplar tuzish; v) savol-javob mashqlari; g) berilgan struktura asosida gaplarni davom ettirish.

3-bosqich. Yangi leksikani mustaqil qo'llash (namunasiz). Bunga savol-javob mashqlari tarjima, bir-biriga bog'liq bo'lgan gaplarni, so'zlarni guruhlashtirish, turli xil nutq vaziyatlari tuzdirish mashqlari kiradi.

O'qituvchi oldida yangi so'zlarni o'zlashtirishlari, mustahkamlashlari uchun qanday metod, usul, yo'l orqali o'quvchilarga tushuntirish, nechta va qanday mashq olish, ularni qanday tartibda bajartirish masalasi ko'ndalang bo'ladi. Bularni o'qituvchi hal qilishi kerak. Yangi leksikani qaytarish, puxta o'zlashtirish uchun mazmunli rasmlarni, diafilmlarni ko'rsatib gapirtirish, matn ustida savol-javob qildirish, ingliz tilida mazmuni gapirtirish, ba'zan ingliz tilidan ona tiliga tarjima qildirish (yozma) mashqlaridan foydalaniladi.

O'rta maktabda 5-6-sinfda maxsus lug'at daftar tutish shart emas, chunki mashqlar daftarida hamma yangi so'zlar yozdiriladi, 7-8-9-sinflarda alohida lug'at daftar tutiladi.

O'qituvchi yangi so'zning shaklini, ma'nosini, qo'llanilishi (funktsiyasi)ni o'zlashtirilganligini tekshiradi.

So'z shaklini tekshirish uchun spelling diktantlar o'tkaziladi. Ma'nosini tekshirish uchun maxsus yozma ishlar, testlar uyushtiriladi. Buning uchun so'zlarni sinonim, antonimlarini toptirish, tarjima qildirish mashqlari qo'llaniladi.

- Hamda: 1) berilgan so'zlar asosida gaplar tuzdirish, savol-javob qildirish;
2) rasmlarni tasvirlatish;
3) hikoya tuzdirish kabi mashqlarni ham bajartirish mumkin.

Leksikani o'rgatishda quyidagi ko'rgazmali va texnik vositalardan: a) eng sodda vosita-sinf doskasidan, b) ingliz tilining ko'rgazmaliligidan, v) o'qituvchi, o'quvchilar tomonidan tayyorlangan har xil ko'rgazmali qurollar (kartochkalar, rasmlar, leksik jadvallar, o'rniga qo'yish jadvallari)dan g) fotogrammalar, videofonogrammalardan foydalaniladi.

Yangi so'zni o'rgatish amaliy tashkil qilish quyidagi ketma-ketlikda bo'ladi:

- I. Yangi so'zni kiritish;
1. Shakl ustida ishlash;
 2. Ma'nosini ochish;
 3. Nutqda qo'llashni o'rgatish.

II. Yangi so'zlarni o'zlashtirish, mustahkamlash mashqlari o'tkazish.

5-6-sinflarda 1 soatda 4-6 tagacha, 7-8-9-sinflarda 1 soatda 6-8 tagacha so'zlarni o'rgatish, kiritish mumkin.

XULOSA

Dars - o'quv tarbiyaviy ishlarni olib borishni tashkil qilishning asosiy shaklidir.

O'quv tarbiyaviy faoliyatning maqsadi: o'quvchilarga bilim berish va chet tilida nutqiy malaka va ko'nikmalarni hosil qilish; til materialini xarakteri va nutq faoliyatining turlariga qarab bu maqsadlar konkretlashtirilishi mumkin. Bizga kerakli muhim narsa bu qo'yilgan maqsadga erishish vositalarini to'g'ri aniqlash, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatni bir biriga o'zaro hurmat asosiga qurish va darsni tashkil qilishdir.

L. N. Tolstoy aytganidek "Agar o'qituvchi o'quvchini ham ota ham ona sifatida ardoqlasa u o'qituvchi barcha kitoblarni o'qigan, lekin kasbini ham o'quvchilarni ham sevmaydigan o'qituvchidan yaxshidir".

O'quvchilar orasida o'tkazilgan ayrim so'rovlarning natijasini keltirib o'tish darsga qo'lgan talablarni va o'quvchilarning darsga va o'qituvchining kasbiy tayorgarligiga nisbatan fikrlariga oydinlik kiritish mumkin. Otkazilgan so'rovga kora:

77,4% kasbini yaxshi bilgan, 59,7% darsni qiziqarli utgan 48,6% o'qituvchi shaxsi, uning o'quvchilariga muhabbati 31,7% o'qituvchining harakatchanligi darsning samaradorligiga ta'sir qiladi degan fikrni bildirishadi.

Chet tili o'qituvchisi doim izlanishda bo'lmog'i zarur. Har darsda o'quvchilarga biror yangi narsa o'rgatish; yangi usullarini amalda sinab ko'rish maqsadga muvofiqdir.

O'quv tarbiyaviy faoliyatning ikkinchi qismini o'quvchilar faoliyati tashkil qiladi. Shunday qilib darsning mohiyati o'qituvchi o'quvchi faoliyatini tashkil qilishdir. Bu amalda mashqlar bajarish asosida olib boriladi, lekin shuni takidlash lozimki mashqlar alohida-alohida emas, balki bir sistemaning tarkibiy qismini tashkil qiladi. Dars mazmuni esa o'z navbatida maktab dasturlari, darsliklari, dars va tarbiyaviy jarayonning boshqa tashkiliy shakllari bilan o'lchanadi.

U ikki kompsnentdan tashkil topadi. O'qituvchi va o'quvchi faoliyati. Dars qaysi tilda o'tilishi kerak degan masala ham munozarali masalalardan hisoblanadi.

Yangi mavzuni yoritishda va eslab qolishda ona tilida tushuntirish maqsadga muvofiq.

H. Palmer 10% dars ona tilida bo'lishi qolgan qismi esa chet tilida tashkil qilinishini maqsadga muvofiq deb bilsa bo'shqa bir olim professor Belyaev B.V darsning 5-15% ona tilida qolgan qismida esa organilayotgan chet tilida bo'lishi ma'qulligini aytadi. Shu bilan birga u yuqori sinfda o'qtuvchining nutqi o'quvchilar nutqiga nisbatan kamroq foizni tashkil qilishi maqsadga muvofiqligini aytadi. Bunda esa leksik materialning to'g'ri tanalnishi va tadbiiq etilishi muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- I. Karimov. "Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori".T., 1997.
- I.Karimov. "Barkamol avlod orzusi".T.: Sharq, 1998.7-bet.
- I. Karimov."Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch ".T.:Ma'naviyat, 2008.
1. "O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish". Toshkent "Sharq" 2000 y.
2. Farberman.B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. T.,2011.
3. Hoshimov U. X. va I. Ya. Yakubov "Ingliz tili o'qitish metodikasi". 1893 yil. O`qituvchi nashriyoti
4. J.J. Djalolov O`rta maktabda ingliz tili o`qitish metodikasi. Toshkent, O`qituvchi nashriyoti 1997 yil.
5. N.N. Azizxo`jayeva.Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.
6. O. Hasanboyeva, G. Shomaribxodjayeva "Pedagogika kasb-hunar maktab va kuni uzaytirilgan guruhi o`quvchilarini tarbiyaviy ishlarga tayyorlash metodikasi" Toshkent-2005 y.
7. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat milliy nashriyoti.Toshkent.2002
8. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi".
9. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
10. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. "Nasaf" nashriyoti.1999.
11. Omonova, G. Lafasova "Darslarni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish va tarbiya masalalari" Toshkent-2003.
12. Passov E. I. Uslovno - recheviye uprajneniya.
13. R.J.Ishmuhamedov.Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari.T.:2004. 3-bet
14. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar mohiyati. "Xalq ta'limi" jurnali.1999, 1-son.
15. Shatilov S, F Metodika obucheniya nemetskomu yazyiku v sredney shkole, L. Prosveshenie 1977 god, str. 65-72, T.: 2003.49-50 betlar.
16. Yo'ldoshev J.G'.Yangi pedagogik texnologiya yo'nalishlari, muammolari, yechimlari. Xalq ta'limi, 1999,4-11betlar.

17. Z. Qo'ziyev "Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish" Toshkent-1997 y.
18. Rogova G.B. Metodika, obucheniya angliyskomu yazyku. "Prosveshenie" 1997.
19. Adrian Doff. Teach English. A training course for teachers. Cambridge. University Press 1988.
20. С.Ф.Шатилов Методическая обучения немецкому языку средней школе. 1986.
21. А.П.Старков. Обучения английскому языку в средней школе. М.1970
22. А.И.Гез и др. Методическая обучения иностранным языку в средней школе. „Высшая школа,, 1982.

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XORIJIY TILLAR FAKULTETI

Ingliz tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi Arziqulova Gulnisoning “**Xorijiy til darslarida leksik materiallar ustida ishlash**” mavzusida yozgan malakaviy bitiruv ishiga

T A Q R I Z

Talaba Arziqulova Gulniso “**Xorijiy til darslarida leksik materiallar ustida ishlash**” mavzusida yozgan malakaviy bitiruv ishini yoritishda bir qator chet tili o'qitish metodikasiga oid ilmiy adabiyotlar bilan tanishib, ulardan samarali foydalangan.

Kirish qismida bitiruv malakaviy ishining maqsadi, vazifasi, metodologik asosi, nazariy va amaliy ahamiyati, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dolzarbligi, tadqiqot ob'ekti va metodi hamda ishning tuzilishi aks ettirilgan.

Tanlangan mavzuning dolzarbligi to'g'ri talqin qilinib, prezident qarorlari orqali asoslab berilgan.

Ishning birinchi bobida ingliz tili darsiga e'tibor qaratilib, darsni tashkil qilish va unga qo'yiladigan talablar, dars turlari va dars bosqichlari atroflicha tahlil qilingan. Ishning ikkinchi bobi “**Ingliz tili darslarida leksik material tanlash tamoyillari**” deb nomlanib, ingliz tilini o'rgatishda leksikaning ahamiyati, psixologik xususiyatlari, lingvistik xususiyatlari, leksikasini o'rgatishni metodik tashkil qilish kabi masalalar o'z aksini topgan. Bundan tashqari, leksikani o'rgatishda so'zlar lug'ati tuzishga qo'yiladigan talablar va lug'at tuzish tamoyillari, leksik materialni nutqda qo'llanish prinsiplari va leksik materialni o'rgatishda mashqlarning o'rni ko'rsatib o'tilgan.

Xulosa qismida qo'yilgan maqsadga erishish vositalarini aniqlash va unga erishishi yo'llarini belgilash borasida yo'l –yo'riqlar ko'rsatilgan. Talaba mavzuni keng yoritib, leksik materiallar ustida ishlash borasida to'liq ma'lumot bergan. Ammo, shu ko'rsatib o'tilgan mavzular bo'yicha misollardan kengroq foydalanib, o'z tajribasidan olingan dalillar ko'rsatib o'tilsa, ishning qiymati yanada oshgan bo'lar edi deb o'ylayman. Shunday bo'lsada, bitiruv malakaviy ishi yaxshi va to'liq bajarilgan. Uni himoyaga tavsiya etsa bo'ladi.

Ilmiy rahbar:

Ingliz tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

S. Q. Hasanova